

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK 412.44

USMONOV ASLIDDIN MANNONOVICH

HOZIRGI ZAMON INGLIZ TILIDA RELATIV
SINTAKSEMALAR PARADIGMATIKASI

5A120102 – Lingvistika (ingliz tili)

Magistr akademik
darajasini olish uchun yozilgan
D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar :

f.f.n., dots. S. Egamberdiyev

f.f.n., A. A. Aliqulov

Himoyaga ruxsat etildi
Magistratura bo‘lim boshlig‘i:
_____ **O‘. J. Toshev**
“ ___ ” _____ **2017y.**

Qarshi-2017

Mundarija

Kirish	3
I Bob. Ingliz tilida gap bo‘lamlari va sintaksema tushunchasi	7
1.1. Ingliz tilida gap bo‘lamlari.....	7
1.2. Sintaksema tushunchasi va uning xususiyatlari.....	19
1.3. Komponent va sintaksem tahlil nazariyasi	23
I bob bo‘yicha xulosa.....	31
II Bob. Ingliz tilida relativ gaplarning ishlatilishi	33
2.1. Ingliz tilida relativ gaplar.....	33
2.2. Relativ olmoshlar ega va to‘ldiruvchi sifatida.....	41
2.3. Relativ gaplarda relativ olmoshlarning predloglar bilan kelishi.....	45
II bob bo‘yicha xulosa.....	49
III Bob. Relativ gaplarning sintaktik - semantik tahlili	50
3.1. Relativ obyekt sintaksema.....	50
3.2. Relativ lokativ sintaksema.....	59
3.3. Relativ temporal sintaksema.....	62
3.4. Relativ kauzal sintaksema.....	64
3.5. Relativ akkordativ sintaksema.....	65
3.6. Relativ stativ sintaksema.....	65
3.7. Relativ limitativ sintaksema.....	66
3.8. Relativ kvalifikativ sintaksema.....	67
3.9. Relativ pozissiv sintaksema.....	68
III bob bo‘yicha xulosa.....	69
Umumiy xulosalar.....	70
Ilovalar.....	74
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	77

Kirish

Hozirgi kunda yosh-avlod yurtimizning rivojlanishi, har tomonlama ravnaq topishi, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan rivojlanishida faol ishtirok etib kelmoqda. Mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy taraqqiyoti qanchalik ilgarilab borsa, bilimga chanqoq avlodni tarbiyalashga boʻlgan ehtiyoj, zarurat ham shunchalik ortib, koʻpayib, kengayib boraveradi. Hozirgi kunda eng dolzarb vazifalardan biri jamiyatimiz aʼzolarini, avvalambor yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy mafkura, oʻz vataniga mehr, sadoqat tuygʻularini singdirish, oʻzlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Mamlakatimizda soʻnggi yillarda fan va taʼlim sohasiga alohida eʼtibor qaratilishi tadqiqotchilar oldiga tilshunoslikning nazariy va amaliy sohalarida masʼuliyatli vazifalarni qoʻymoqda. Bunday vazifalardan biri chet tillarni oʻrganish va oʻrgatishdir. Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning taʼbiri bilan aytganda, “Bugun jahon hamjamiyatidan oʻziga munosib oʻrin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda oʻz buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yoʻqdir”¹. Shu oʻrinda biz yana birinchi prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi satrlarini keltirishni lozim deb topdik: “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam boʻlmasligi, farzandlarimiz bizdan koʻra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli boʻlib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada maʼnaviy tarbiya masalasi hech shubhasiz, beqiyos kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qatiyat va maʼsuliyatni yoʻqotsak, bu ishni oʻz holiga, oʻziboʻlarchilikka tashlab qoʻyadigan boʻlsak, muqaddas qadriyatlarimizga yoʻgʻrilgan va ulardan oziqlangan maʼnaviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda oʻzimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yoʻlidan chetga qolishimiz mumkin”¹.

¹ Karimov I.A. “Barkamol avlod - Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori”. – Toshkent. Oʻzbekiston, 1998.

² Karimov. I.A. “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asaridan. Toshkent 2009

Mavzuning dolzarbligi. Til paydo bo'lgandan boshlab uni ilmiy jihatdan tahlil qilishga harakatlar bo'lgan. Hozirgi zamonaviy ingliz tili grammatikasida relativ olmoshlardan keng miqyosda foydalaniladi. Mazkur olib borilayotgan tadqiqotda, ya'ni "Hozirgi zamon ingliz tilida relativ sintaksemalar paradigmikasi" haqida so'z yuritilgan. Relativ sintaksemalar haqida hozirga qadar ilmiy adabiyotlarda yetarlicha tahlil qilinmagan. Biz tahlil qilayotgan lingvistik birlikning hozirgi zamon ingliz tili til strukturasi hali yetarlicha tahlil qilinmaganligi, bu lingvistik birlikning tildagi ahamiyati o'ta muhimligi, muammolarning yechimiga qaratilganligi, mana shu masalga oydinlik kiritishni taqozo etganligi – mavzuning dolzarbligini tashkil etadi. Shuning uchun bu mavzu o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqot ishi hozirgi zamon ingliz tilida relativ sintaksemalar tahlilini o'rganishga qaratilgan bo'lib, bunda relativ olmoshlar ob'jekt sifatida sintaksemalar esa predmeti sifatida olinadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Ushbu tadqiqot ishida relativ sintaksemalar tahlilini yoritib berishda, relativ olmoshlar gapda qanday bog'lanishlar asosida aloqaga kirishini ko'rsatib berishni, ularning gapdagi boshqa komponentlar bilan munosabatini va qanday sintaktik – semantikalarini ifodalashi mumkin ekanligi ko'rib chiqishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bu maqsadni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi bir necha vazifalarni o'z ichiga oladi. Bunday vazifalar quyidagilardan iborat:

- hozirgi zamon ingliz tili til strukturasi relativ olmoshlarning sintaktik aloqadorlikni topish;
- relativ olmoshlarni gapda qanday komponent bo'lib kelishini aniqlash;
- qilinayotgan tahlil orqali relativ olmoshlarning semantikalarini ko'rsatib berish.

Tadqiqotning nazariy asoslari. Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar nazariyasi va ungacha bo‘lgan nazariyalarni inkor etmagan holda, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar nazariyasining davomi sifatida komponent va sintaksem tahlil nazariyasiga tayangan holda birinchi bor bunday chuqur tarzda tahlil qilinmoqda.

Tadqiqotning metodologik asosi. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari tadqiqot muammosiga oid ilmiy-metodik adabiyotlarga tayanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot ishimizning ilmiy yangiligi – bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar nazariyasi va ungacha bo‘lgan nazariyalarni inkor etmagan holda, birinchi bor komponent va sintasem tahlil nazariyasiga tayangan holda biz tahlil qilayotgan lingvistik birlikning o‘rganib chiqishga qaratilganligi. Ushbu tadqiqot ishimizda relativ sintaksemalarning relativ obyekt, relativ lokativ, relativ temporal, relativ kauzal, relativ akkordativ, relativ stativ, relativ kvalifikativ, relativ limitativ, relativ pozissiz xususiyatlari ko‘rsatib berilgan va isbotlangan. Badiiy adabiyotlardan keltirilgan misollar yuqoridagi fikrlarimizni ifoda etishda vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishimizning natija va xulosalari amaliy va nazariy grammatika, leksika, sintaksis kabi fan sohalarini boyitadi. Relativ sintaksemalar hozirgi zamon Ingliz tilidagi relativ gaplar haqidagi bilimlarimizni mustahkamlaydi. Tadqiqot ishimizda relativ olmoshlar orqali yasalgan relativ sintaksemalar Ingliz adabiyotidagi asarlardan keltirilga misollar asosida yoritib beriladi. Ingliz tilidagi badiiy adabiyotlardan keltirilgan misollar yuqoridagi fikrlarimizni isbotlashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Komponent va sintaksem tahlil nazariyasiga oid ilmiy metodik tavsiyalar bilan boyitildi. Qo‘llanilgan nazariy asoslar til o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, uch bob bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa va foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar ro'yhati, foydalanilgan lug'atlar va internet saytlari, ilova va o'z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Ilmiy tadqiqot ishi yuzasidan 2016-2017-o'quv yilida 2ta ilmiy maqola chop etildi. Mazkur maqolalarda tadqiqot ishining birinchi va ikkinchi boblaridan namuna sifatida ko'rsatiladi. Birinchi maqola "Komponent va sintaksem tahlil nazariyasi" deb nomlanib, unda komponent va sintaksem tahlil nazariyasi haqida so'z yuritiladi. Ikkinchi maqola "Ingliz tilida relativ gaplar" bo'lib, unda ingliz tilida relativ gaplar va relativ olmoshlarning ishlatilishi to'g'risa gap boradi.

I Bob. Ingliz tilida gap bo‘lamlari va sintaksema tushunchasi

1.1. Ingliz tilida gap bo‘lamlari

Gap nutq birligi sanaladi. Shunday bo‘lgach, uning sintaktik tahlili nutq lingvistikasi qonun – qoidalari doirasida amalga oshirilishi lozim bo‘ladi. Nutq lingvistikasi qonun-qoidalari esa yaqin yillarda ilmiy asoslana boshladi. Ana shu bois ular orqali sintaktik tahlilda o‘z aksini topishi lozim bo‘lgan gapning struktur butunligini tashkil etayotgan bevosita ishtirokchi elementlarning tildan nutqqa ko‘chirilishi va bu jarayonda ularning qay tarzda sintaktik faollik olishi, sintagmatik zanjirning voqelanishidagi ulushi masalalarini izohlab bo‘lmaydi.

Gap bo‘lamlari nazariyasiga asoslanuvchi an’anaviy sintaktik tahlilning zaif tomonlari haqida ba’zi tilshunoslar o‘z fikr va mulohazalarini bildirishgan bo‘lishiga qaramay, bu sohada hali keskin o‘zgarishlar sodir etilganicha yo‘q. Rus tilshunosi Z.D.Popova mazkur masala xususida quyidagilarni yozadi: «Традиционное учение о членах предложения содержало в себе такие противоречия, которые постоянно побуждали синтаксистов к его пересмотру»².

Z.D. Popova gap bo‘lamlari tushunchasiga yangicha yondashib, ularning gapda bajaradigan vazifalarini birmuncha mukammalroq va aniqroq izohlashga harakat qiladi. Olima G.A.Zolotova qo‘llagan “sub’yektiv” va “predikativ” terminlaridan foydalanib, gap bo‘laklarini ularning vazifalariga ko‘ra quyidagicha tasnif etadi:

1. Gapning struktur sxemasiga kiruvchi gap bo‘lamlari. Bunga subyektivlar (ega, dativ subyektiv, genitiv subyektiv, instrumentativ subyekt va h.k.lar); predikativlar (kesim, predikativ ravish, infinitiv va h.k.) kiradi.

2. Gapning struktur sxemasiga kirmaydigan gap bo‘lamlari. Bu bo‘laklar, o‘z navbatida, ikkiga bo‘linadi:

1. Gapning pozision sxemasiga kiruvchi ikkinchi darajali bo‘laklar (to‘ldiruvchi, hol).

² Попова З.Д. Может ли обойтись синтаксис без учения о членах предложения // Вопросы языкознания, № 5, 1984. – С. 69.

2. Gapning pozision sxemasiga kirmaydigan ikkinchi darajali bo‘laklar (aniqlovchi)³.

Tilshunoslarning gapning ikkinchi darajali bo‘laklari haqida ham bildirishayotgan salbiy mulohazalarini kuzatamiz. Bu xususda gapirganda akademik V. V. Vinogradov gapning ikkinchi darajali bo‘laklari masalasini tubdan qayta ko‘rib chiqish kerakligini, ular grammatik tamoyillarga izchil asoslanmaganligi tufayli gap strukturasi sodir bo‘ladigan jonli sintaktik aloqalarni mutlaqo sun‘iy ifodalashini alohida ta‘kidlagan edi⁴.

Bunday fikr Ya. I. Rosloves tadqiqotlarida ham ko‘zga tashlanadi. Uning «Вопросы языкознания» jurnalida e‘lon qilingan maqolasida quyidagilarni o‘qiymiz: «Традиционное учение о второстепенных членах предложения... переживает своеобразный и противоречивый кризис»⁵. Olim masalaning bunday holatga kelib qolishining asosiy sababi mantiqiy va sintaktik kategoriyalarning, gap va hukmning, gap bo‘laklari va mantiqiy hukm bo‘laklarining bir-biridan keskin farqlanmayotganligida deb biladi.

Tilshunoslik adabiyotlarida gap bo‘laklari va ularning talabga javob bera olmayotgani haqida aytilgan fikr va mulohazalar anchagina bo‘lishiga qaramay, hozirgacha bu xususda sof lingvistik qonun-qoidalarga izchil asoslanuvchi biror bir konkret taklif kun tartibiga qo‘yilgani yo‘q. Bizningcha, buning amalga oshishi nutq lingvistikasining to‘liq ilmiy asoslanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Boshqacha aytganda, gap nutq birligidir va shu bois uning sintaktik tahlili muammolarini ham nutqdan ayri holda hal etish mushkuldir.

Ma‘lumki, har bir til tizimining sintaktik qatlamini o‘rganishda gaplar struktura jihatdan kommunikativ yo‘nalishiga hamda tarkibiga ko‘ra tasniflanadi. Ammo gapdagi so‘zlar o‘zaro bog‘langan bo‘lib, ularning har biri gap tarkibida biror grammatik vazifani bajaradi. Gap strukturasi tahlil qilishda undagi gap bo‘laklari sintaktik kategoriya hisoblanadi. Mazkur kategoriyalar gap tarkibidagi

³ Попова З.Д. Может ли обойтись синтаксис без учения о членах предложения // Вопросы языкознания, № 5, 1984. – С. 72.

⁴ Виноградов В.В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М.: Наука, 1975. – С. 282.

⁵ Рословец Я.И. О второстепенных членах предложения и их синтаксических функциях // Вопросы языкознания. № 3, 1976. – С. 74.

elementlarning o‘zaro munosabatini, bu munosabatning harakterini, gapning grammatik jihatdan qanday bo‘laklarga ajralishini, so‘zning gapdagi rolini ko‘rsatadi. Har bir gap ma’lum ob’yektiv mazmun va substant material, ya’ni so‘zlar yordamida ifodalanadi. Gapning substantsional tomoni uning sintaktik strukturasi hisoblanadi. Sintaktik strukturani tashkil etgan elementlar tilshunoslikda turlicha, ya’ni “gap bo‘laklari”, “sintaksema”⁶, “sintaktik shakl” kabi⁷ nomlanib kelinmoqda. Sintaktik elementlarni, shuningdek, aktant nomi bilan ham atashadi. Avvalo shuni aytish lozimki, “aktant” termini tilshunoslikka taniqli fransuz olimi Lyus‘en Ten‘yer tomonidan kiritilgan edi. U aktant deganda, fe‘l bajarayotgan ish-harakati ijrosida faol qatnashayotgan leksik birliklarni tushunadi. Aktantlar, boshqacha aytganda, harakat ijrochisi va uning iste‘molchilaridir. Ularning ishtirokisiz fe‘lning sintaktik vazifalari xususida hamda uning jumla tarkibida voqyelanayotgan faolligi xususida mukammal ma’lumotga ega bo‘lish qiyin.

Aktant gap sathida ot turkumidagi so‘z yoki mazkur so‘zning o‘rnida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan olmosh, otlashgan biror so‘z orqali ifodalanadi.

L.Ten‘yer aktantlarni harakat ijrosidagi darajasiga qarab uch turga bo‘lib talqin etadi va ularni 1-darajali, 2- darajali, 3- darajali aktantlar deb nomlaydi⁸. L.Ten‘yerning aktantlar nazariyasi mantiq iskanjasida bo‘lgan tilshunoslikni sezilarli darajada undan tozalash uchun xizmat qilishi shubhasizdir, zotan, mazkur nazariyada an’anaviy sintaktik tahlilda qo‘llaniladigan ega, kesim, aniqlovchi va h.k. tushunchalaridan foydalanilmaydi.

Ma’lumki, an’anaviy tilshunoslikda gapning sintaktik talqini xususida so‘z yuritilganda gapni bo‘laklarga ajratib tahlil qilish tushuniladi. Gap bo‘laklarining bunday tavsifi tilshunoslikda XX asrning o‘rtalariga qadar sintaktik tahlil jarayonida yetakchi rol o‘ynadi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, til birliklariga, shu jumladan, sintaksemalarga muayyan ichki strukturaga ega bo‘lgan murakkab sistema sifatida yondashuv, tilning boshqa sathlarida bo‘lgani kabi sintaktik sathda

⁶ Мухин А.М. Функциональный анализ синтаксических элементов - М.: Наука, 1964. – С.23.

⁷ Золотова Г.А. К вопросу о способах выражения членов предложения - М., 1958.-№ 1. – С. 23-28.

⁸ Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс, 1988. – С. 117.

ham turli yangicha tahlil mezonlarini ishlab chiqish uchun asos bo'ldi.

Sistem tilshunoslikda gapning struktur elementlari gap bo'laklari yoki sintaktik pozitsiya, propozitiv struktura elementlari esa ob'yektiv reallik strukturasiga nisbatan izomorflik, kommunikativ (aktual) struktura tema (ma'lum) va rematik (yangi), modal struktura ob'yektiv va sub'yektiv munosabatlar nuqtai nazaridan o'rganiladi. Darhaqiqat, har bir strukturaning o'ziga xos elementlari mavjud bo'lib, ular faqat shu struktura darajasidagina o'zaro assotsiativ va sintagmatik aloqada bo'ladi. Shu jihatdan qaralganda, an'anaviy tilshunoslikdagi ayrim muammolarning sababi oydinlashadi. Xususan, an'anaviy tilshunoslikda gapning sintaktik tahlili uni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratish bilan chegaralanadi. Bunday tahlil gapning shakliy tomonini tekshirish hisoblanadi. Mantiq tilshunoslari esa gap elementlarini ega o'rnida "sub'yekt", kesim o'rnida "predikat" kabi lisoniy atamalar yordamida tahlil qiladi. Lekin bu borada ega bilan sub'yekt, kesim bilan predikat o'rtasidagi o'xshashlik tomonlar hamda ularning bir-biridan farq qilish muammosi anchagina bahslarga yo'l ochib berishi e'tibordan chetda qoladi. Masalan, rus mantiqiy tilshunosi F.I. Buslayev, "...tilda egaga bosh kelishikda kelgan ot mos keladi... ba'zan ega va kesim boshqa so'z turkumlari bilan ifodalanadi, lekin har holda egani anglatgan so'z ot ma'nosini, kesimni anglatgan so'z esa fe'l ma'nosini oladi"⁹, degan fikrni bildiradi. Shunday ekan, gapda ega har doim bosh kelishikda kelib, faqat sub'yektini ifodalasa, kesim fe'l bilan ifodalanib, predikat bo'lib kelsa va ularda bir xillik mavjud bo'lsa, bosh bo'laklarni har xil atamalar bilan atashga nima majbur qiladi, degan savol tug'iladi. Mantiqda implikatsiya munosabatlari ekstensional, intensionallar va ularning orasidagi bog'liqlik orqali, grammatikada esa grammatik kategoriyalar, gapdagi fe'lli va otli qurilmalarning bog'liqligi bilan aniqlanadi¹⁰.

Gapning sintaktik qatlami tahlil qilinganda gapda ega yoki kesimning muhim ahamiyatga ega ekanligi ham ayrim bahslarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bosh bo'laklar gapning asosini tashkil etadi: ular gap konstruksiyasining

⁹ Буслаев Ф.И. Историческая грамматика английского языка. - М.: Наука, 1968.-С. 8.

¹⁰ Tomić O.M. Generative syntax in theory and practice. —University, 1998. - P.119-120.

asosidir, markazidir-gapdagi ikki uyushtiruvchi markazdir. Lekin bosh bo‘laklarning yolg‘iz o‘zi ham mustaqil gapni tashkil qiladi, biroq ba‘zi o‘rinlarda ularning o‘zidan to‘liq fikr ifodalanmaydi. Egani hokim tarkibning grammatik markazi, shuningdek, uni tobe tarkibdagi bosh bo‘lakka - kesimga ham hokimdir, deb ta’kidlashadi. Kesim haqidagi bunday talqin 1980 yillargacha, ya’ni fanimizga sistem-struktur sintaktik tadqiqotlar kirib kelgunga qadar davom etib keldi. Ammo xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida kesimning mavqeyi yangicha baholandi - kesim gap quril’ishidagi mutloq hokim bo‘lak, gap markazi sifatida talqin etildi¹¹.

Umuman olganda, kesim bosh bo‘laklarning biri sifatida barcha tillarda universal harakterga ega bo‘lishiga qaramasdan, u ifodalanishiga ko‘ra tasniflanganda tilshunoslarning kesim haqidagi fikri turli-tumanligining guvohi bo‘lamiz. Masalan, ingliz tili nazariy grammatikalaridan birida kesim quyidagicha tasniflanadi: sodda fe’l kesim, tarkibli fe’l kesim. Tarkibli kesim ikki ko‘rinishga ega: 1) tarkibli ot-kesim; 2) tarkibli fe’l-kesim¹². Ularning ifodalanishi haqida fikr yuritilganda, sodda fe’l-kesim nafaqat yaxlit, yagona fe’l yordamida, balki fe’lning murakkab shakli orqali ham ifodalanishi qayd etilgan. Bundan tashqari, tarkibli ot-kesim bog‘lama fe’l hamda predikatni ifodalovchi ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, holatni ifodalovchi so‘zlar, infinitiv, gerundiy yoki ravish orqali ifodalanadi, deb ta’kidlanadi.

V.D. Arakinning fikricha, kesim bir komponentli va ikki komponentli kesimlarga bo‘linib, bir komponentli kesim ikki turga ajratiladi:

a) ega bilan moslashadigan;

b) ega bilan moslashmaydigan. Ikki komponentli kesimlar ham ikki turga ajratiladi:

a) ot kesim; b) murakkab kesim¹³.

Kesimning bunday tasniflanishi B.A. Ilyishning fikrini ham tasdiqlaydi, ya’ni u ingliz tili nazariy grammatikasida kesimni ikki katta guruhga bo‘ladi: fe’l

¹¹ Теньер Л. Основа структурного синтаксиса: Перевод с франц. -Редкол.: Г.В.Степанов (Предисловие) и др. - Вступ. статья и общ. ред. В.Г. Гака. - М.: Прогресс, 1988. - 656 с.

¹² Жигадло В.Н., Иванова И.П., Иофик Л.Л. Современный английский язык (теоретический курс грамматики). - М.: Лит. на иностр. языке, 1956. - С.246.

¹³ Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. - Л.: Просвещение, 1979. - С.189-190

kesim, ot kesim, shuningdek, ularning har birini yana ikkiga bo‘ladi: sodda fe’l-kesim, qo‘shma fe’l-kesim; sodda ot-kesim, qo‘shma ot-kesim¹⁴.

Ingliz tili amaliy grammatikasida kesim quyidagicha tasniflanadi:

- 1) Sodda kesim (Simple predicate);
- 2) Qo‘shma kesim (The compound predicate)¹⁵.

Birinchi kesim turi fe’lning shaxsli shakli bilan ifodalanadi, ammo uning tarkibi frazeologik birliklar yordamida ifodalanganini hisobga olib, u frazeologik kesim deb nomlanadi. Masalan: I’ll get a divorce__ (LEPW, p46).

Kesimning ikkinchi turi ifodalanishiga ko‘ra ikki qismdan iborat bo‘ladi, birinchi qismi fe’lning shaxsli shakli bilan ifodalansa, ikkinchi qismi esa ot, olmosh, sifat, sifatdosh, gerundiy va infinitiv yordamida ifodalanadi. Qo‘shma kesimning o‘zi ikki guruhga bo‘linadi:

- 1) qo‘shma ot-kesim;
- 2) qo‘shma fe’l kesim.

Qo‘shma ot-kesim bog‘lama fe’l va boshqa so‘z turkumlari yordamida ifodalanadi. Bu borada shuni ta’kidlash lozimki, ingliz tilida juda ko‘p fe’llar borki, ular gapda bog‘lama, mustaqil va yordamchi fe’llar vazifasida ishlatiladi. Bunday hol ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun ma’lum qiyinchiliklar tug‘diradi.

Everyone was the king_ (GDFA. p83).

Qo‘shma fe’l-kesim ifodalanish usuliga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

- 1) Qo‘shma modal fe’l-kesim;
- 2) qo‘shma aspekt fe’l-kesim.

Qo‘shma modal fe’l-kesim asosan, modal fe’llar yoki ularning muqobillari hamda fe’lning infinitiv shaklini qo‘shish bilan ifodalanadi:

We shall have to exirt ourselves (SMHB.p62).

Kesimning bu turi haqida ham ayrim qiyinchiliklarga duch kelamiz. Masalan, gap tarkibida to hope, to expect, to intend, to attempt, to try, to want kabi fe’llarni infinitiv yoki gerundiy bilan birikib kelsa ham qo‘shma modal fe’l-kesim deyish mumkin, lekin bu uni chuqurroq tahlil qilishga undaydi. Masalan:

¹⁴ Пыш В.А. The structure of Modern English. – Л.: Просвещение, 1971. - С. 207-208.

¹⁵ Каушанская В.Л., Ковнер Р.Л. и др. Грамматика английского языка. -Л.: Просвещение, 1973. - С.230.

I don't want to take it to anybody (CDTC. P32) gapiga e'tibor qilaylik. Bu gapga shunday savol qo'yish mumkin: What don't you want? Yana, ikkinchi bir gapni olaylik: He tried to open the tin with a pocket knife. Bu gapga esa Why did he try? deb, savol qo'yish mumkin. Mazkur gaplarning birinchisiga qo'yilgan savol to'ldiruvchiga mos bo'lsa, ikkinchisidagi esa maqsad holiga mos keladi. Yoki ba'zi qo'llanmalarda qayd etilganidek, gapda kesim o'rnida to be obliged, to be bound, to be anxious, to be capable kabi birikmalar infinitiv bilan kelsa ham qo'shma modal fe'l-kesim deb atalishi mumkin.

Qo'shma aspekt fe'l-kesim haqida to'xtalsak, u gapda kesim o'rnida to begin, to start, to continue, to stop kabi fazali fe'llar bilan infinitiv yoki gerundiyning birikib kelishi yordamida ifodalanadi.

John intends buying a house. (RMEG.p110)

John intends to buy a house. (RMEG.p110)

Har ikkala gapga bir xil savol, ya'ni to'ldiruvchiga beriladigan savol mos keladi, What does he intend? E'tibor berib qaralsa, bu kesim turini alohida ajratishda fe'llarning leksik ma'nosi asosiy o'rinni egallaydi. Boshqalarida esa ifoda planiga qarab ajratilgani yaqqol ko'rinib turibdi. Yuqorida qayd etilganlardan ma'lum bo'ladiki, aspekt kategoriyasi qaysi qatlamda, ya'ni morfologik, sintaktik yoki leksik qatlamda o'rganilishidan qat'iy nazar izohtalabdir. Aspekt kategoriyasi L.S. Barxudarovning fikricha, fe'lning zamon shakllariga qarab o'rganilib davomsizlik (non—continuous aspect) va davomlilik (continuous aspect) aspektlariga ajratiladi, ya'ni tilning morfologik qatlamida o'rganiladi¹⁶.

Grammatik materiallarni tadqiq etishda distributiv, transformatsiya, bevosita ishtirokchilarga ajratish tahlil usullari asosida ko'zga ko'rinarli ishlar qilingan bo'lsa-da¹⁷, biz o'z dissertatsiyamizda komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish usulini qo'llashni afzal ko'rdik. An'anaviy grammatikada gapni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratib tahlil qilishda o'ziga xos juz'iy kamchiliklar

¹⁶ Бархударов Л.С. Очерки по морфологии современного английского языка. - М.: Высшая школа, 1975. - С.113-116.

¹⁷ Wells R.S. Immediate Constituents // Language. -- Baltimore, 1989. - № 23. - № 2. - P. 88.

mavjud. Chunki an'anaviy tilshunoslikda sintaktik birliklarga ajratiladigan bo'laklar ham gapning bir bo'lagi deb qaraladi. Bu esa gap bo'laklarini elementar sintaktik birliklarga ajratish imkonini bermaydi. Undan tashqari, gap tahlilida sintaktik elementlarning semantikasi hisobga olinmaydi. Ammo ushbu ishda tillar tizimida gapda kesim o'rnida kelgan sintaktik birliklarga e'tibor qaratgan holda ularni sintaktik jihatdan o'rganish bilan cheklandik. Ushbu muammoni tadqiq etishda A. M. Muxin va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan lisoniy metoddan¹⁸ foydalanish bizning nazarimizda yuqorida qayd etilgan usullarga xos ayrim kamchilik va nuqsonlarni to'ldirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tahlil usuli boshqalaridan farqli ravishda ikki bosqichda amalga oshiriladi. Xususan, boshlangich bosqichda gapdagi elementlar komponentlarga ajratib tahlil qilinadi hamda ushbu bosqichda berilgan elementlarning o'zaro sintaktik aloqalari aniqlanib, bir-biridan farqlanish usullari yunksion va komponent modellarda ifoda etiladi.

Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davri bosqichida til tizimi birliklarining qay tarzda nutqqa ko'chirilishi va jumlaning nutqiy zanjirda voqelanishi, sintaktik strukturalarning nutqiy faollashuvi, ularning semantik va sintaktik munosabatlari masalasiga doir muammolar tilshunos olimlarimizdan o'z tadqiqini kutmoqda. Chunki hozirgacha tilning sistema ekanligi to'g'risida diqqatga sazovor tadqiqot ishlari qilingan bo'lsa ham, sistema belgilarining nutqqa ko'chirilishi, boshqacha aytganda, ularning nutqda real ishlatilishi masalasiga kam e'tibor berildi.

Mazkur masalalar ayniqsa nutq lingvistikasi ilmiy asoslanayotgan bugungi kunda yanada dolzarb bo'lib qolmoqda. Zotan, til tizimidagi har bir belgining paradigmatic qator doirasidan sintagmatic qator doirasiga o'tishi, virtuallik belgilarini tark etib, aktual holat kasb etishi va shu yo'sinda gapning sintaktik shakllanishi nutq lingvistikasining g'oyat muhim masalalarini taqozo etadi.

Ravshanki, gapning asosiy bevosita ishtirokchi elementlari so'zlar hisoblanadi. Biroq gap sathida so'zlarning o'zaro bog'lanishi ularning shunchaki

¹⁸ Мухин А.М. Синтаксемный анализ и проблемы уровней языка. - Л.: Наука, 1980.-304 с.

ketma-ket kelishidan iborat bo'lmay, bunda tilning semantik, sintaktik va hatto fonologik qurshov (distributsiya) qoidalari ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Bu jarayonda gap shaklini tashkil etayotgan har bir bevosita ishtirokchi element uning ajralmas bir bo'lagi vazifasini olib, ma'lum bir funksional qiymat kasb etadi. Chunki gap tarkibida faollashayotgan har bir element orqali ma'lum bir kommunikativ, semantik yoxud pragmatik maqsad ko'zda tutiladi. Mazkur maqsad ifodasi esa turlicha ro'y beradi. Masalan, gapda tilning ba'zi birliklari katta yoki kichik bo'lishidan qat'i nazar, mustaqil holatda faollashib, ega yoki kesim vazifasini bajarsa, ba'zilariga boshqalarning yordamida aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol vazifalari yuklanadi, ayrimlari esa muxtor tarzda harakatga keladi.

Tilimizda shunday elementlar ham mavjudki, ular biror sintaktik vazifani bajarmay so'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikrga, yoxud o'sha fikrning ifoda etilishi usuliga bo'lgan munosabatni bildiradi. Bunday munosabat tasdiq, umid, ishonch, gumon, taxmin, shodlik, taajjub va hokazo ma'nolarni anglatib, bayon qilinayotgan fikr tartibini, mazkur fikrning oldingi mulohaza bilan bog'liqligini ifodalaydi. Bular modal so'zlar bo'lib, gapning biror bo'lagiga yoki butun gapga taalluqli holda kirish so'z mavqeida kelishi bilan sintaktik va nihoyat, fikrga aniqlik kiritishi, tasdiq, taxmin, tartib turlicha emotsional munosabatlarni ifodalashi bilan semantik belgilarga ega bo'la oladi. Kirish so'z va kirish birikmalar gapning umumiy strukturasi kengaytirib, uning mazmuniga qo'shimcha ma'no berishiga qaramay, an'anaviy grammatikalarda gap bo'laklari qatoriga kiritilmaydi. Bu esa gapni tashkil etuvchi bevosita ishtirokchilarning birini bosh bo'lak, ikkinchisini ikkinchi darajali bo'lak deb, boshqasini nomsiz qoldirib, hech qanday bo'lak qatoriga qo'shmaslik masala mohiyatini nihoyatda chigallashtirib yubormoqda. Bunday vaziyatga ko'pchilik olimlarimiz ko'nikib ketishgan bo'lsalar-da, so'nggi yillarda ba'zi tilshunoslar bu haqda o'zlarining e'tirozli fikrlarini bildirmoqdalar. Masalan, modal so'z va modal birikmalar gapning uchinchi darajali bo'laklari ekanligini va ular semantik vazifalaridan tashqari sintaktik vazifa bajarishi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berildi. Kirish so'z va kirish birikmalar ko'pincha gapning kesimi vazifasida kelgan so'z

bilan sintaktik munosabatda bo‘lib, ular bilan boshqaruv, bitishuv usullari orqali bog‘lanadi. Lekin shunga qaramay, bu o‘rinda ham muammo yechimi to‘liq hal qilinganligini e‘tirof etishimiz qiyin ko‘rinadi. Chunki gap bo‘laklari nazariyasi gap ma’nolarining formal-sintaktik funksiyalarini atroflicha yoritmayapti. Bizningcha, buning asosiy sababi gap bo‘laklari tushunchasining mantiqiy xarakteri bilan bog‘liqdir. Boshqacha aytganda, gap bo‘laklari tushunchasi so‘f lingvistik maqsadlarni ko‘zda tutmagani bois, u orqali gap komponentlarining tildan nutqqa ko‘chirilishi va bu jarayonda qanday sintaktik vazifalar bajarishi masalasi talqinini berib bo‘lmayapti. Albatta, vaziyatning bunday tus olishi tilshunos olimlarimizni tashvishlantirmoqda va shu bois gap komponentlari sintaktik tahlilining yangi-yangi usullari taklif ham etilmoqda. Ana shunday tahlil usullaridan biri Praga tilshunoslik maktabining yirik namoyandalaridan biri A.Martining funksional tahlil nazariyasidir. Mazkur nazariyada nutqning eng kichik birligi “monema” tushunchasi ilmiy iste’molga kiritildi. Bu struktur-funksional tahlil uchun eng qulay atama bo‘lib, uning yordamida gap elementlarining funksional tomonlarini va sintaktik qurilmaning shakllanishida har bir elementning paradigmatic qator doirasidan sintagmatic qator doirasiga o‘tishi masalalarini mukammal talqin etish mumkin. A.Martine monemalarni uchga bo‘ladi: avtonom, funksional va qaram monemalar¹⁹. Avtonom monema gap tarkibida muxtor holda qo‘llanilib, tildan nutqqa biror bir morfologik vositaning yordamisiz ko‘cha oladi. Nutqda uning faolligi boshqa monemalar bilan bog‘lanmaydi. Boshqacha aytganda, muxtor monema o‘zining sintaktik, semantik va funksional faolligi jihatidan boshqa biror monemaga tobe bo‘lmaydi.

Boshqa gap elementlariga qaraganda muxtor monemaning sintaktik o‘rni erkin bo‘lganligi sababli aksariyat hollarda uning o‘rnini o‘zgartirish yoki gap tarkibidan tushirib qoldirish ham mumkin. Garchi u tushirilib qoldirilsa ham, gapning asosiy mazmuniga putur yetmaydi. Faqat uning yuzaki strukturasi qisqarishi va gapda ifodalanayotgan ta’kidlash, gumon, aniqlik, inkor, shodlik, shubha va hokazo ma’nolariga ziyon yetishi mumkin. Ammo ayrim kirish so‘z va

¹⁹ Martinet A. La linguistique synchronique. –Paris, 1968.

kirish iboralarning o'z ichki qonuniyatlari bilan bog'liqdir. Bu, albatta, har bir tilning o'z ichki qonuniyatlari bilan bog'liqdir.

Yuqoridagilardan tashqari, ilovali va parsellyativ qurilmalar, kirish so'z, kirish birikmalar ham tom ma'noda sintaktik muammolar sifatida o'rganilgani yo'q. Ammo ular gapning bevosita ishtirokchi elementlaridir. Shunga ko'ra, kirish so'z, kirish birikma hamda undalmalarni gapning uchinchi darajali bo'laklari deb atashgan edi. Biz quyida shu kabi masalalarni komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish orqali hal qilishga harakat qilamiz.

Ingliz tilida sintaksisida gap bo'laklarini o'rganish va ular o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilishda sintaktik aloqalarni to'rtta turga bo'lib o'rganilgan:

1) Atributivlik (aloqa turning eng qisqa turi) – hokim va tobe bo'laklarni bir kompleks doirasidagi o'rganuvchi aloqa;

2) Predikativlik (eng mustaqil aloqa turlari) – gapning bosh bo'laklari o'rtasidagi aloqa;

3) Kompletivlik(tuslanuvchi aloqa turi) – gapning ikkinchi darajali bo'laklari o'rtasidagi aloqa;

4) Kopulyativlik – gapning uyushiq bo'laklari o'rtasidagi aloqa;

Aloqalarning oxirgi turi, kopulyativlik aloqasi eng oddiy aloqa turiga kiradi. Gapdagi kopulyativ aloqasi orqali gapning uyushiq bo'laklari boshqariladi, kopulyativ aloqa gapni alohida bo'laklarga ajratadi. Aniqlangan atributivlik aloqasi hokim va tobe bo'laklar o'rtasidagi aloqa bo'lib, u sintaksis bo'limiga taalluqli hisoblanadi. Atributivlik aloqasini ko'pchilik tilshunoslar o'z ilmiy ishlarida turlicha tadqiq etishgan. Gapda ishtirok etadigan aloqalardan eng asosiy lari predikativlik va kompletivlik aloqalaridir.

N.P. Gaman ham aloqalarni tovush tonlari asosida yoritib, o'z tadqiqotida predikativ aloqasi ustida chuqurroq to'xtalgan.²⁰ Gaman aloqalarini ikki turga bo'ladi:

1) Formal grammatika (grammatik ot va grammatik kesim o'rtasidagi aloqa);

²⁰ Гаман Н.А. Семиотик предин. Паузы. КДМ 1977

2) Kommunikativ – dinamik (leksik ot va leksik kesim o‘rtasidagi aloqa);

Bundan tashqari ayrim tilshunoslar aloqalarni uch turga bo‘lib o‘rganishgan. Masalan, L.S. Barxudarov aloqalarni avval ikki “bog‘lanish” va “ergashish” turlarga bo‘lib, keyinchalik ularni kngaytirgan va uchinchi aloqa predikativlik aloqasini tadqiq etgan²¹.

A.M. Muxin esa, o‘z qarashlarida “bog‘lanish” va “ergashish” terminlarini sotsiotiv – predikativ aloqalarga bo‘linadi, deb hisoblagan²². “Bog‘lanish” va “ergashish” predmetlarini “sotsiotiv –predikativ” terminiga bog‘liq ekanligini, ya’ni aloqalarni uch turga ajratgan:

1) ikki element ham bir-biriga bog‘lanib kelmaydiva bog‘lanuvchi aloqa (koordinatsiya) deb ataladi.

2) birinchi element ikkinchisiga bog‘lanib keladi, ikkinchisi esa, birinchi elementga tobe bo‘lmaydi va ergashuvchi aloqa (subordintasiya) deb ataladi.

3) birinchi element ikkinchi elementga bog‘liq bo‘ladi va ikkinchi element ham birinchisiga bog‘lanib keladi. Bu predikativlik aloqasi deb ataladi.

Biz gaplarni sintaktik va semantik xususiyatlarini aniqlashda ko‘proq professor A.M. Muxin yozgan kitoblardan foydalanamiz va u tomonidan qo‘llanilgan sintaktik elementar birlik nazariyalari orqali gaplarni tahlil qilamiz. Gapning qurilishida elementar sintaktik birliklarning ikki turi – gapning komponentli strukturasi, ikkinchisi esa gapning sintaksemani strukturasi tashkil etadi. U yoki boshqa birliklarning xarakterli tomoni ularning sintaktik bo‘linmasliklari hisoblanadi, shuning natijasida u elementar sintaktik birlik deb nomlanadi. Tilshunos olim A.M. Muxin gapda ishtirok etgan mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan har bir so‘zga leksema deb ta’rif berib, ularga alohida komponent sifatida qaraydi. A.M. Muxin nazariyasiga tayanib shuni aytsih mumkinki gapdagi komponentlar ma’lum bir sintaktik bog‘lanish asosida bir-biri bilan birikadi.

²¹ Бархударов Л.С. Очерки по морфологии современного английского языка. - М.: Высшая школа, 1975.

²² Мухин А.М. Синтаксемный анализ и проблемы уровней языка. - Л.: Наука, 1980.-304 с.

1.2. Sintaksema tushunchasi

Sintaksema – bu sintaksis va semantikaning eng kichik ma’noli, bo‘linmaydigan birlik bo‘lib, u o‘zida ma’lum bir til birligining sintaktik-semantikasini mujassamlashtiradi. Agar birgina olib qaraydigan bo‘lsak u o‘zida o‘ndan ortiq sintaksemlarni mujassamlashtiradi. “Sintaksema” atamasi lingvistik adabiyotda yaqindan boshlab har xil ma’nolarda ishlatila boshlandi va sintaktik-semantikni bildiruvchi so‘zdir. A.M.Muxin sintaksemlarga oid paradigmatik qator bo‘lgan oddiy sintaktik birlik invariant yoki variantlar tizimi sifatida ta’rif beradi²³. Sintaksemlar o‘rtasidagi farq, uning fikricha, avvalambor, o‘zining variantlar yig‘indisi jihatidan bir sintaksemaning boshqasidan farq qilishidadir. Bu xususiyat sintaksemani oddiy sintaktik birlik invariant sifatida aniqlashga yordam bergan. Gaplarning ichki va tashqi tuzilishning oddiy sintaktik birliklari o‘zaro bog‘langan, vaholanki sintaksemlarning gapning u yoki bu bo‘lagi sintaktik aloqalarni hisobga olgan holda belgilandi, ular gapning u yoki bu bo‘lagi differensial sintaktik-semantik belgilar oppozitsiyasi tizimi va paradigmatic qarama-qarshilikdir. Ularning ba’zi sintaksemlar o‘ta umumiydir, boshqalari kam umumiydir. Shuning uchun ham kategorial va nokategorial sintaktik-semantik belgilarga bo‘linadi.

Birinchilari, substansial, prosessual va kvalifikativ belgilardir. Bu belgilar asosida sintaksemlar uch kategoriyaga bo‘linadi. Boshqa differensial sintaktik-semantik belgilari ham umumiydir, ular asosida kategoriya ichida sintaksemlarga bo‘linadi. Nokategorial belgilar, bular masalan, agentivlik, obektlilik, lokativlik, iterativlik, temporallik, faollik va boshqalar. U yoki bu belgilar yig‘indisi sintaksemlarning sintaktik-semantik ma’nosini tashkil etadi, ular sintaktik aloqalarni hisobga olgan holda paradigmatic qarshiliklar tizimida hosil bo‘ladi. Bunday formal distributiv belgilarning ham o‘rni bor; joylashuvchanlik, birkuvchanlik, sintaksemlarning pozitsion imkoniyatlaridir.

²³ Мухин А.М. Синтаксемный анализ и проблемы уровней языка. - Л.: Наука, 1980.

Sintaksemalarni ular o'ratsidagi sintaktik aloqalarga tayanmagan holda aniqlash mumkin emas. Shunday qilib, obektli, temporalli, lokativ va boshqa sintaksemalar, predlogli yoki predlogsiz hamda gerundi, ot va olmosh bilan ifodalangan sintaksemalarni bir tomonlama yo'nalishga ega bo'lgan subordinativ aloqaga tayanmagan holda aniqlash mumkin emas. Sintaksema paradigmatic rejada boshqa sintaksemalarga qarshi turadi, sintaktik-semantik belgilarning umumiyliigi bilan birlashgan paradigmatic qatorlar har bir sintaksemaning variantlarini tashkil etadi. Gapda predlog ot yoki olmosh bilan bir birlikni tashkil qiladi va bu birlik sintaksemalar variantlarida ot yoki olmosh birligi bilan ifodalanadi. Predlogli birikmalar bilan ifodalangan lokativ, temporal va boshqa sintaksemalarni shundan iboratki, obektiv sintaksemalar faqatgina subordinativ aloqalar asosida emas, balki markaziy predikativ aloqa asosida, yasaladi. Obekt sintaksemalar birinchi sintaktik tomoni kuchli, ikkinchi tomoni kuchsiz. Sintaksema tushunchasi kelib chiqishiga ko'ra gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini an'anaviy grammatika jihatdan o'rganish bilan bog'liqdir va shuning uchun sintaksem analiz nazariyasi va a'naviy grammatikada gap bo'laklarini o'rganish o'rtasidagi ketma-ketlik deb aytish mumkin. Bu ketma-ketlik shu bilan shartlanadiki, sintaktik aloqalarni hisobga olgan holda aniq birlik zahirida yotadi. Biroq, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar zahirida yotgan birliklarning diskretligi aniq belgilab berilmagan. Chunki bu tushuncha qabul qilingunga qadar sintaktik bo'linmas birliklar va o'z ichiga sintaktik aloqalarni olgan konstruksiyalarga asoslangan edi. Sintaktik jihatdan bo'linmas sintaksem, tadqiqotchilar uchun elementar birliklarni gap qurilishida yuzaki va chuqur o'rganish uchun tayanch bo'lib xizmat qiladigan belgi modellari, yuniksiyon model deb ataladi. Gap bo'laklarini a'naviy Grammatik jihatdan o'rganishda elementar sintaktik birlik mavjud emas va ta'kidlab o'tilganidek, gap bo'laklari deb bosh va ikkinchi darajali hamda sintaktik bo'linuvchi konstruksiya deb tan olinadi.

Sintaksem analiz nazariyasi va gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini o'rganish o'rtasidagi izchillik har ikkala holatda ham gapning strukturasiidagi diskret birliklarning sintaktik-semantikasini, ya'ni ularning sintaktik-semantik

ma'nolarini o'rganishga bo'lgan urinish biln shartlanadi. Biroq bu turdagi yo'nalishda gap bo'laklarini o'rganishdagi urinishlar gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarining mantiqiy cheklanishiga olib kelmaydi, chunki unisi ham, bunisi ham ba'zida u yoki bu sintaktik-semantikning ulushi hisoblanadi. Masalan, u yoki bu boshqa harakat obyektning ega yoki to'ldiruvchisini ifodalashda; "Ota hukumat tomonidan taqdirlandi" ma'nosida ifodalanadi. "Hukumat otani taqdirradi", shuningdek ega va to'ldiruvchini agent bilan ifodalash imkonini beradi. Bu munosabatga O. Yespersonning quyidagi gaplar haqidagi mulohazasi juda o'rinlidir; "Peter is beaten by John" - "Peter Jon tomonidan kaltaklanadi" uning yozishicha "Boshqa ta'riflar bilan mos holda "John" ga ega sifatida qaraladi. Chunki John ish-harakat bajaruvchi shaxsdir. Buning sababi shundaki, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari tushunchasida o'zining mazmun va yasalish xususiyatlariga ega bo'lgan turli xil sintaktik birliklar birlashadi; Bir tomondan gap strukturasi yuzki qismini tashkil etuvchi gapning yadroviy va noyadroviy komponentlari, ikkinchi tondan esa gapning chuqur strukturasi hosil qiluvchi, yasovchi sintaksemalar. Bu ikki turdagi elementlar sintaktik birliklarning farqlanish mohiyati chuqur mazmunga egadir. Ya'ni uzoqqa borib taqaladi. Birinchidan u gapning strukturasi ularning ma'naviy va yasalish xususiyatlarini yuzaki va chuqur o'rganish imkonini beradi, shu bilan birga sintaksemalarning mazmuni xususiyatlari sintaktik-semantik belgi bo'lib xizmat qiladi. Uning mazmunining majmuini tashkil etadigan komponentlari mazmuniy xususiyatlar aynan tildan tashqari harakatlarni ifodalash bog'liq bo'lmagan sintaktik tabiatga egadirlar. Ikkinchidan, gap strukturasi keltirilgan ikki turdagi elementlar sintaktik birliklar gapning mazmuniy klassifikatsiyasiga asoslanish imkonini beradi. Bir tomonda gapning asosiy ikki sintaktik turga bo'inishi bir yadroli va ikki yadroli ya'ni ularning yuzaki strukturasi ikki yoki bitta yadro komponenti mavjudligiga bog'liq holda shuningdek, ularning yopiq va yig'iq gapligiga qarab; boshqa tomondan esa gapning sintaktik-semantik sinf va kichik sinflarga bo'inishi yadroviy komponentlar pozitsiyasida mos keluvchi sintaksemalarning gap komponentlarning gap farqiga qarab ajratish, sintaktik maydonning sistemali

munosabatlarini o'rganishga kirishish imkonini berdi, chunki, sintaktik-semantik xususiyatlar, ularning majmuiga har bir sintagmaning mazmuni kiritiladi, tadqiqotchiga sintaksemaning paradigmatic qatorini o'rnatishga yo'l ko'rsatadi, unda keyingilari, aniq sintaktik-semantik xususiyatlarning umumiyliigi asosida birlashadilar va shuningdek sintaksem variantlarning paradigmatic qatorlarini ham aytib o'tishimiz joizdir. To'rtinchidan, gap strukturasi yuzaki va chuqur diskretli elementar birliklarini farqlash, ularning yagona ma'noviy va formal xususiyatlari lingvistik analizdan foydalanish metodlariga-modellashtirish va eksperimentga keng imkoniyatlar ochdi. Ulardan birinchisi lingvistik birlik modeli belgilarini yaratish harakteriga ega, ikkinchisi esa – lingvistik transformatsiya xarakteriga egadir, ya'ni gap qatoridagi elementar birliklarni o'rganish maqsad bo'lib xizmat qiladi, gapning va sintaksemaning komponentlarini bu elementar birliklar tabiatiga bog'liq holda o'rganish imkoniyatini yaratadi. O'z navbatida ko'rsatib o'tilgan lingvistik analiz metodlaridan keng foydalanish aynan tilning boshqa darajalari qatoridagi elementar konstruktiv birliklar kabi, elementar birliklarni tadqiq etishning eng real ishonarli isboti hisoblanadi. Beshinchidan, sintaksemni sistemali munosabatda o'rganish va ularning variantlarini modellashtirish va eksperiment qilish lingvo-topologik analiz oldiga aniq, rejali prespektivani ochib beradi. Keyingisi sistemli asosga ega emas edi va shartli ravishda rivojlanmadi, chunki unda tadqiqotchi lingvistik analiz metodlari mavjud emas va gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari haqida an'anaviy grammatik tushuncha bilan cheklangandi.

Sintaktik birliklarni o'rganishning tor mazmuniy va yasaliish tomonlarining uzviy birligini hisobga olib sintaksem analiz va an'anaviy grammatik analiz o'rtasidagi bevosita ketma-ketlikka gap bo'laklarida ma'no va shakl muammosiga, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning mazmuniy va yasaliish xususiyatlariga bir vaqtning o'zida katta e'tibor qaratilishini aytib o'tish kerak.

1.3. Komponent va sintaksem tahlil nazariyasi

Bizga ma'lumki, har bir til strukturasi o'rganishda bosh va ikkinchi darajali bo'laklar nazariyasi muhim rol o'ynaydi. 1970 yillarga qadar ingliz tili grammatikasida F. N. Buslayev²⁴, B. A. Ilish²⁵, A. I. Smirniskiylarning ilmiy mulohazalari gapning ikkinchi darajali bo'laklari an'anaviy nazariyasiga asoslangan edi. Lekin har bir nazariyaning yutuq va kamchiliklari bo'ladi shu singari bu nazariya ham ba'zi bir cheklanishlarga ega. U o'zida obyektiv borliqni to'la to'kis ifoda ettirmaydi. Keyingi paytlarda tilshunoslikda komponent va sintaksem tahlil nazariyasi paydo bo'ldi. Bundan so'ng yana bir yangi nazariya professor A. M. Muxin tomonidan ishlab chiqildi va unda asosiy e'tibor tildagi elementar sintaktik birliklarni – gapning komponentlari va sintaksemalarni o'rganishga qaratildi. Lekin shuni ham alohida ta'kidlash joizki, komponent va sintaksem tahlil nazariyasi an'anaviy bosh va ikkinchi darajali bo'laklar nazariyasini also inkor etmaydi, aksincha, u o'zida aks ettirilmagan voqelikni o'zida mujassamlashtiradi. Gapning strukturasi elementar sintaktik birliklar o'rganilar ekan, ularni chuqurroq oydinlashtirish uchun, albatta, sintaktik aloqalarga murojat qilinadi. Bunda gap komponentining mazmun-mohiyatiga chuqurroq kirib borishga, ya'ni sintaksema deb nomlanuvchi elementar sintaktik birlik ustida ish olib boriladi. Demak komponent degan atama ostida gapning ustki qatlami – gap bo'laklari o'rganilsa, sintaksemada gapning ichki qatlami – mazmun-mohiyati o'rganiladi. Gap va gapning komponentlaridan farqli o'laroq, gapning sintaksemalari sistemali munosabatlarni o'rganish imkoniyatlarini ochadi.

Sintaksemalar semantik jihatdan paradigmatic qatorlarga va ularning variantlariga ega bo'lib, ular eksperiment va modellashtirish metodlari orqali o'rganiladi.

Bundan kelib chiqadiki, u traditsion bosh va ikkinchi darajali bo'laklar nazariyasini davomchisi va merosxo'ridir.

²⁴ Буслев Ф.И. Историческая грамматика английского языка. - М.: Наука, 1968.

²⁵ Ийиш В.А. The structure of Modern English. – Л.: Просвещение, 1971.

Bu ikki nazariyaning mushtarakligi ya'ni ularning umumiy maqsaditil birikmalarining sintaktik semantikasini aniqlashdir.

Bu nazariya asoschisi professor A.M.Muxin bo'lib, uning izdoshlari R.E.Qiyomov²⁶, S. Egamberdiyev²⁷lar bu sohada muvaffaqiyatli izlanishlar olib bormoqda.

Morfologiyaning birligi morfema, fonetikaning birligi fonema, leksikologiyaning birligi leksemabo'lgani kabi bu nazariyaga asosan sintaksisning birligi sintaksemdir.

Sintaksema – bu eng kichik ma'noli bo'linmaydigan birlik bo'lib, u o'zida ma'lum bir til birligining sintaktik semantikasini mujassamlashtiradi. Tildagi har bir sintaksema ikki va undan ortiq sintaktik-semantikasi ifodalaydigan sintaksemi o'zida mujassamlashtiradi. Agar lokativ sintaksemaning birgina o'zini olib qaraydigan bo'lsak, u o'zida o'ndan ortiq sintaksemi mujassamlashtiradi, ya'ni ular quyidagilar:sof lokativ, lokativ ellativ, lokativ terminative, lokativ aktiv va boshqalar.

Sintaksemalar 3 ta asosiy kategorial sintaksemalarga, ya'ni substansional (bu sintaksema o'zida predmet xususiyatini aks ettiradi), prosessual (bu sintaksema o'zida ish harakatni va jarayonni ifodalaydi), kvalifikativ (bu sintaksema sifatga, belgiga xos) sintaksemalarga bo'linadi va bundan tashqari ular bir necha paradigmatic qatirlarga, ya'ni nokategorial sintaksemalarga lokativ, temporal, negative, akkuzativ, obyekt appozitiv, negative akkuzativ, obyekt appozitiv, kauzal, aktiv, komitativ, relyativ, aggentiv kabi sintaksemalarga ega bo'ladi.

Biz gap bo'laklarini nazariyaga asoslab komponent va sintaksem tahlil qilib o'rganar ekanmiz, bugungu kunga qadar bu metod bo'yicha ilmiy ishlar olib brogan A. M. Muxinning izdoshlari Badanina, Doroshenkov, Kravsov, Z. Petrova, S. Egamberdiev, R. Qiyomovlarning ham ilmiy mulohazalar olib borganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur ishni yoritishda biz asosan professor A.M.Muxin,

²⁶ Р. Киямов “Лингвистический анализ предложных сочетаний в современном английском языке” Насаф 2009

²⁷ С. Эгамбердиев “Синтаксические и синтаксико-семантические характеристики сочетаний с предлогом *under* в современном английском языке” Насаф 2007

dotsent R.Qiyomov va S.Egamberdiyevlarning dissertatsiyasidan va boshqa bir qator manbalardan foydalanamiz. Mazkur ishga asos bo'lgan tushuncha va terminlar nazariyasi professor Muxin tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib uning davomchilari tomonidan muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Terminlar barcha tillarga tushunarli bo'lishi uchun ularning lotin tillaridagi nomlari saqlab qolingan. Gapning elementar birikmalari o'rtasida turli sintaktik bog'lanishlar ya'ni yadroviiy predikatsiya, subordinativ (tobe) bog'lanish va appozitiv (bilvosita) bog'lanishlar bo'lishi mumkin.

Predlogli birikmalar gapning ikkinchi darajali bo'laklar nazariyasi va so'z birikmalariaspektida elementlar sintaktik birlik sifatida qaralmaydi. Biz komponent va sintaksem tahlilga asosan predlogli birikmalarni elementar birlik sifatida qaraymiz.

Gapning komponent va sintaksem tahlili o'z ichiga gap strukturasi namoyon bo'ladigan ikki sintaktik birlikni o'zining formal va mazmun birligiga ega bo'lgan gapning komponent va sintaksem birliklarni o'z ichiga oladi. Gap komponentlarining mazmun plani o'zining sintaktik belgilari bilan xarakterlanadi. Gap komponentlarining formal xususiyatlariga ularning u yoki bu so'z turkumi bilan ifodalanishi boshqa elementlar bilan birikishi gapdagi o'rni va pozitsion imkoniyatlari kiradi. Gapning komponentlari va sintaktik gap strukturasi ikki qatlamining yuzaki va ichki strukturasi tashkil etadi. Zamonaviy tilshunoslik fanlari asosan til bir sistemalar yig'indisidir. Bu esa sintaktik birliklarni ikki planda sintagmatik va paradigmatic planda o'rganishni taqozo etadi.

Gapning komponentlari ifodalangan turli sintaktik belgilarni bitta gap doirasida ko'rib chiqish sintagmatik aspektni tashkil etadi. Sintaksemalarning mazmunini ifodalagan ikki yoki undan ortiq gap doirasida taqqoslash paradigmatic aspektni tashkil etadi. Tildagi har bir sintaksemavariantlar sistemasidan tashkil topgan ya'ni ekvivalent paradigmatic qatorni tashkil etadigan bir-biriga ekvivalent bo'lgan element yoki birikmalar sistemasidan iborat. Bir xil umumiy sintaktik semantik belgilar ostida birlashgan sintaksemalar boshqa sintaksemalarga qarama-qarshi paradigmatic qatorni tashkil etadi.

A. Muxin differensial belgilarning va shu holatlarning qarama-qarshi qo'yishini sintaktik elementlarni o'rganib quyidagi xulosalarga keldi. Gap bo'laklarini traditsion tushungan holda ularni ikkiga bo'ldi: gap komponenti va sintaksema. Ikki tomonlama birliklarga elementar bo'lingan gap strukturasi nazariy asosda sintaktik tahlil konsepsiyasi olib borilgan, yani bir holatda sintakmatik rejada, ikkikchisi esa paradematik rejada. Birinchi holdagi birlik gap komponenti deyilgan. Ular turli- tuman sintaktik belgilarni ya'ni ichki sintaktik bog'lanishiga qarama-qarshi sistemani xarakterlaydi. Ikkinchi holdagi birlik esa sintaktik, semantik belgilarni xarakterlaydi. Elementar sintaktik birliklar ikkita strukturasiidan tashkil topadi.

Yuniksion model bu – u yoki bu gap strukturasiidan sintaktik bog'lanishni anglatadigan model bo'lib, u gorizantal chiziladi. Yuniksion modelda asosan gap komponentlari orasidagi sintaktik bog'lanish tasvirlanadi.

Sintaksem analizda asosan uch yo'nalish bo'yicha:

- 1) ifoda usuliga ko'ra;
- 2) elementar birliklarning sintaktik mazmuniga ko'ra;
- 3) sintaktik pozitsiyasiga ko'ra izlanish olib boriladi.

Bu yo'nalish bo'yicha R.E.Qiyomov²⁸, S. Egamberdiyev²⁹ kabi tilshunoslar muvaffaqiyatli tadqiqotlar olib borishgan.

Leningradlik olim A.M.Muxin³⁰ nazariyasiga ko'ra 6 ta sintaktik-semantik bog'lanish bor:

1. Yadroviy predikativ bog'lanish.
2. Noyadroviy predikativ bog'lanish.
3. Subordinativ bog'lanish.
4. Koordinativ bog'lanish.
5. Appazitiv bog'lanish.
6. Introdaktiv bog'lanish.

²⁸ Р. Киямов “Лингвистический анализ предложных сочетаний в современном английском языке” Насаф 2009


²⁹ С. Эгамбердиев “Синтаксические и синтаксико-семантические характеристики сочетаний с предлогом *under* в современном английском языке” Насаф 2007

³⁰ А.М.Мухин “Синтаксемный анализ и проблема уровней языка” Ленинград 1980

Yadroviy predikativ bog‘lanish: Ko‘plab olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, gapning yadrosini komponentlar ega va kesim tashkil etadi va ular ikkalasi boshqa bo‘laklarsiz grammatik jihatdan grammatik qonun- qoidalarga javob beruvchi gap strukturasi tashkil etadi. Ular orasidagi bog‘lanish yadroviy predikatsiyaga asoslanadi. Bizga ma’lumki, ingliz tili gap strukturasi esa yo egani yoki kesimning tushirib qoldirilishi gap strukturasi buzilishiga olib keladi.

Subordinativ bog‘lanish: Ikkinchi darajali bo‘laklarning ega va kesimga yoki ega yoki kesimga bog‘liqligi tobe bog‘lanish deyiladi.

(1) 1 2 3 (4) 4 (1)
The pen which I was writing with



1D.2D. NP1. NP2

Bu misolda 3-komponent bilan 4- komponent yadroviy predikativ bog‘langan. 1-komponent 4-komponentga subordinativ bog‘langan. Xuddi shuningdek, 2-komponent 1-komponentga subordinativ bog‘langan.

Noyadroviy predikativ bog‘lanish: Noyadroviy predikativ bog‘lanish ega va kesim o‘rtasidagi bog‘lanishga o‘xshaydi, ammo undan farq qiladi.

Koordinativ bog‘lanish: Koordinativ aloqa deb tobe uyushiq bo‘lakli gaplarni birlashtirish sistemasi hisoblanadi. Birga ikkita yoki undan ortiq uyushiq bo‘lakli gaplar komponentini bir xil turdagi sintaksis belgilar bilan bittaga qo‘shib ko‘rsatish mumkin ammo uyushiq bo‘lakli komponentlarni alohida fe’lga qo‘shib bo‘lmaydi.

Appozitiv bog‘lanish: Appozitiv sintaksem bog‘lanish 1 komponentni 2-komponent bilan biriktiradi va gapning ikkinchi komponenti orqali uchinchisiga bog‘laydi. Yuneksion modelda appozitiv bog‘lanish oxiridagi strelka chizig‘i bilan emas, balki o‘rtasida beriladi. (—————>)

Introduktiv bog‘lanish: Kirish so‘zlari orqali ifodalangan bog‘lanish hisoblanadi. Masalan, at first, so, maybe, of course, perhaps, at last...

Oxirgi 20 yillikda ko‘pgina tadqiqotlarda sintaksema tushunchasini oddiy sintaksis birligining invarianti, ikkinchi tomondan gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari tushunchalari ko‘rsatib berildi. Sintaksema tushunchasi manbalarda grammatik tahlillar bilan bog‘liq, shuning uchun gap haqida va sintaksisni tahlil nazariyasi bilan izchilligi haqida gapirish mumkin. Gapda uning tuzilishidagi sintaksis bog‘lanishlarni hisobga olgan holda sintaksema tushunchasi va gap bo‘laklarida diskrit birliklarini turishi bilan bog‘liq ravishda kelib chiqqan. Lekin gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari tushunchalari ortida turuvchi diskrit birliklari hech qachon to‘liqligicha ta’riflab berilmagan, modomiki ushbu tushunchalarni shu vaqtgacha sintaksis jihatdan bo‘linmaydigan birliklar va o‘ziga sintaksis bog‘lanishlarni qamrab olgan, ya’ni sintaktik bo‘laklarga bo‘linadigan birliklar tushunib kelingan. Sintaksemaning diskretliligi mutlaqo aniq xarakterga ega, chunki ularning tarkibiga faqatgina eng soddalarigina kiradi, ya’ni gapning tuzilishida sintaktik bo‘linmaydigan birliklar sintaksemalarning sintaksis bo‘linmasligi gapning yuniksiyon modellari deb nomlanadigan belgili modellarida aks etadi va ular tadqiqotchi uchun eng oddiy birliklarini gapning tuzilishida yuzaki yoki chuqur o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Gap bo‘laklari haqidagi an’anaviy grammatik ta’limotda elementar sintaktik birlik haqidagi tushuncha yo‘q, modomiki hozir aytib o‘tilganidek sintaktik bo‘laklarga bo‘linadigan konstruksiya ham gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari kabi tan olinadi. Sintaksemani o‘rganish vaqtida intonatsiya bilan ajralib turadigan va ajralmagan sintaktik bo‘laklarga bo‘linadigan konstruksilar bor yoki yo‘qligi bilan ham hisoblanishi kerak.

Sintaksemlil tahlil ta’limoti va gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarining o‘rtasidagi izchillikda gap tuzilishida diskrit birliklarining sintaksik ya’ni sumantikasi u yoki bu holatlarda, ularning sintaktik-semantik mazmuni bilan bog‘lanishiga harakat qiladi. Lekin gap bo‘laklari haqida ta’limotga bu yo‘nalish bo‘yicha urinishlar gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarini mantiqiy

chegaralarini farqlashga olib keladi, chunki ular va boshqalari ko‘pincha bir va o‘sha sintaktik semantikada bo‘linmas ekanligini aniq bo‘lib qoladi. Ushbu holatlarni yuzaga kelish sabablaridan biri bu o‘zining mazmuniy va yuzaki belgilariga ega bo‘lgan xar xil sintaktik birliklarni mohiyatan birlashtirgan gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga tushunchasi: bir tomondan gapning asosiy va asosiy bo‘lmagan komponentlari bo‘lsa, ikkinchi tomondan sintaksemlardir, qaysiki birinchisi gapning yuzaki tuzilishi bo‘lsa, ikkinchisi chuqur mazmunli tuzilishidir.

Birinchidan u gaplarni yuzaki elementar birliklar va chuqur mazmunli tuzilishdagi gaplarni o‘ziga xos mazmunli va shakli bilan birlikda o‘rganadi, buning ustiga sintaksemaning mazmuniy xususiyatlariga sintaktik-semantik xususiyatlarini hammasi uning mazmunini tashkil qilganda gapning tarkibiy qismidagi mazmuniy belgilari sof sintaktik tabiatga ega bo‘ladi, ya’ni tildan tashqari voqelikni hodisalar bilan aloqasi yo‘qligini belgilab beradi, bir tomondan gaplarni ikki asosiy sintaktik tipga ikki o‘zakli va bir o‘zakli komponent borligi, shuningdek, keyinroq ularning yoyilganligi yoki yoyilmaganligiga qarab bo‘linsa, ikkinchi tomondan gaplarni sintaktik-semantik guruhlariga va kichik guruhlariga o‘zakli komponentlarni mos pozittsiyalarga sintaksemlarga mos kelishidan kelib chiqqan holda bo‘linadi. Uchinchidan, gaplardagi jiddiy farq qiluvchi komponentlardan sintaksemlarni ajratish sintaksis sohadagi sistemalar munosabatini o‘rganishga kirishishga yordam beradi, modomiki sintaktik-semantik belgilarni o‘zida jamlagan har bir sintaksema mazmuni tadqiqotchini qator paradigmatic sintaksema variantlarini umumiy sintaktik-semantik belgilariga ko‘ra birlashtirishga yo‘naltiradi. To‘rtinchidan, gapning yuzaki va chuqur tuzulishi elementar birliklarini mazmuniy va yuzaki xususiyatlari bilan birlikda diskretli elementar birliklarni farqlash, modellashtirish va tajriba kabi tilshunoslik uslublaridan foydalanishda keng imkoniyatlarni ochdi, qaysiki ulardan birinchisi belgili tilshunoslik modeli birligini hosil qilish xarakteriga ega bo‘lsa, ikkinchisi gaplar va sintaksemlar komponentiga tabiatan ega bo‘lgan elementar birliklarni o‘rganish maqsadiga xizmat qiluvchi lingvistik transformatsiya xarakteriga ega.

O‘z navbatida ko‘rsatib o‘tilgan tilshunoslik uslublaridan keng foydalanishi o‘rganilayotgan oddiy sintaktik birliklarni mavjudligini isboti boshqa tillar darajasida elementar birliklarni konstruktiv birliklar tarkibi kabidir. Beshinchidan, sintaksema va ularning vaariantlarini modellashtirish va tajriba uslublariga tayangan holda munosabatlar tartibini o‘rganish lingvo tipologik tahlil oldidagi kelajagi borligini ko‘rsatadi. Oxirgisi sistemali asosga ega bo‘lmagan va sintaktik struktura sohasidagi bilimlar gapning bosh, ikkinchi darajali bo‘laklari, an’anaviy grammatik tushunchalari bilan chegaralangan va tadqiqotchi tilshunoslik tahlili uslublariga ega bo‘lmagan vaqtda rivojlana olmagan.

Gap tarkibidagi ikki turdagi elementar birliklarni chegaralash oqibatlari gaplar va sintaksema komponentlari va ularning mazmuniy va formal xususiyatlarini hisobga oladi. Ushbu munosabatlarda, sintaktik birliklari ularning mazmuniy va formal tomonlarni chambarchas uzviy birligini hisobga olgan holda sintaksemlil tahlil va gap bo‘laklarining an’anaviy grammatik tahlilining uzviy izchilligini belgilamasdan bo‘lmaydi, qaysiki uning uchun mazmun va shakl, bir vaqtda bosh va ikkinchi darajali gap bo‘laklarini mazmuniy va formal xususiyatlari hisobga olishga intilish muammolari xarakterlidir. Ko‘rib chiqilayotgan an’anaviy grammatik va sintaksemlil tahlillar tabiiy inson tili, xususan transformatsion grammatik mutaxassislar, bevosita to‘plangan grammatik mutaxassislar, tobe grammatik mutaxassislar va boshqa zamonaviy tilshunoslik oqim tarafdorlarini sintaktik birliklarga nisbatan mazmuniy va tilning formal holatlariga qo‘llanilishini ko‘pincha o‘zlariga vazifa qilib belgilamaydilar, balki “mazmuniy reja birliklari” va “ifoda reja birligini” a’lohida o‘rganish mumkin, shu bilan birga diskretli sintaktik birliklar ularni mazmun va shakllarini mavjud birikdagi toza simantika ustida olib borgan kuzatishlarga almashtiriladi. Eng avvalo an’anaviy grammatik analizda elementar birliklar gapning yuzaki va chuqur tuzulishi bilan chegaralanmaydi. Ma’lumki, gapning bosh bo‘laklarini ikkinchi darajali bo‘laklarga qarama-qarshiligini ularni bir-biriga bog‘lanish vositalari bilan formal belgilarini aniqlashga harakat qilish mumkin.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Oxirgi 20 yillikda ko'pgina tadqiqotlarda sintaksema tushunchasini oddiy sintaksis birligining invarianti, ikkinchi tomondan gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari tushunchalari ko'rsatib berildi. Sintaksema tushunchasi manbalarda grammatik tahlillar bilan bog'liq, shuning uchun gap haqida va sintaksisni tahlil nazariyasi bilan izchilligi haqida gapirish mumkin. Gapda uning tuzilishidagi sintaksis bog'lanishlarni hisobga olgan holda sintaksema tushunchasi va gap bo'laklarida diskrit birliklarini turishi bilan bog'liq ravishda kelib chiqqan. Lekin gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari tushunchalari ortida turuvchi diskrit birliklari hech qachon to'liqligicha ta'riflab berilmagan, modomiki ushbu tushunchalarni shu vaqtgacha sintaksis jihatdan bo'linmaydigan birliklar va o'ziga sintaksis bog'lanishlarni qamrab olgan, ya'ni sintaktik bo'laklarga bo'linadigan birliklar tushunib kelingan. Sintaksemaning diskretliligi mutlaqo aniq xarakterga ega, chunki ularning tarkibiga faqatgina eng soddalarigina kiradi, ya'ni gapning tuzilishida sintaktik bo'linmaydigan birliklar sintaksemalarning sintaksis bo'linmasligi gapning yuniksiyon modellari deb nomlanadigan belgili modellarida aks etadi va ular tadqiqotchi uchun eng oddiy birliklarini gapning tuzilishida yuzaki yoki chuqur o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Gap bo'laklari haqidagi an'anaviy grammatik ta'limotda elementar sintaktik birlik haqidagi tushuncha yo'q, modomiki hozir aytib o'tilganidek sintaktik bo'laklarga bo'linadigan konstruksiya ham gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari kabi tan olinadi. Sintaksemani o'rganish vaqtida intonatsiya bilan ajralib turadigan va ajralmagan sintaktik bo'laklarga bo'linadigan konstruksilar bor yoki yo'qligi bilan ham hisoblanishi kerak.

Sintakseimli tahlil ta'limoti va gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarining o'rtasidagi izchillikda gap tuzilishida diskrit birliklarining sintaksik ya'ni sumantikasi u yoki bu holatlarda, ularning sintaktik-semantik mazmuni bilan bog'lanishiga harakat qiladi. Lekin gap bo'laklari haqida ta'limotga bu yo'nalish bo'yicha urinishlar gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini mantiqiy chegaralarini farqlashga olib keladi, chunki ular va boshqalari ko'pincha bir va

o'sha sintaktik semantikada bo'linmas ekanligini aniq bo'lib qoladi. Ushbu holatlarni yuzaga kelish sabablaridan biri bu o'zining mazmuniy va yuzaki belgilariga ega bo'lgan xar xil sintaktik birliklarni mohiyatan birlashtirgan gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga tushunchasi: bir tomondan gapning asosiy va asosiy bo'lmagan komponentlari bo'lsa, ikkinchi tomondan sintaksemlardir, qaysiki birinchisi gapning yuzaki tuzilishi bo'lsa, ikkinchisi chuqur mazmunli tuzilishidir. Oddiy sintaktik birliklarni mantiqiy o'ziga xosligi uzoqqa olib boruvchi natijalarga ega.

Birinchidan u gaplarni yuzaki elementar birliklar va chuqur mazmunli tuzilishdagi gaplarni o'ziga xos mazmunli va shakli bilan birlikda o'rganadi, buning ustiga sintaksemaning mazmuniy xususiyatlariga sintaktik-semantik xususiyatlarini hammasi uning mazmunini tashkil qilganda gapning tarkibiy qismidagi mazmuniy belgilari sof sintaktik tabiatga ega bo'ladi, ya'ni tildan tashqari voqelikni hodisalar bilan aloqasi yo'qligini belgilab beradi, bir tomondan gaplarni ikki asosiy sintaktik tipga ikki o'zakli va bir o'zakli komponent borligi, shuningdek, keyinroq ularning yoyilganligi yoki yoyilmaganligiga qarab bo'linsa, ikkinchi tomondan gaplarni sintaktik-semantik guruhlariga va kichik guruhlariga o'zakli komponentlarni mos pozittsiyalarga sintaksemlarga mos kelishidan kelib chiqqan holda bo'linadi. Uchinchidan, gaplardagi jiddiy farq qiluvchi komponentlardan sintaksemlarni ajratish sintaksis sohadagi sistemalar munosabatini o'rganishga kirishishga yordam beradi, modomiki sintaktik-semantik belgilarni o'zida jamlagan har bir sintaksema mazmuni tadqiqotchini qator paradigmatic sintaksema variantlarini umumiy sintaktik-semantik belgilariga ko'ra birlashtirishga yo'naltiradi. To'rtinchidan, gapning yuzaki va chuqur tuzulishi elementar birliklarini mazmuniy va yuzaki xususiyatlari bilan birlikda diskretli elementar birliklarni farqlash, modellashtirish va tajriba kabi tilshunoslik uslublaridan foydalanishda keng imkoniyatlarni ochdi, qaysiki ulardan birinchisi belgili tilshunoslik modeli birligini hosil qilish xarakteriga ega bo'lsa, ikkinchisi gaplar va sintaksemlar komponentiga tabiatan ega bo'lgan elementar birliklarni o'rganish maqsadiga xizmat qiluvchi lingvistik transformatsiya xarakteriga ega.

II Bob. Ingliz tilida relativ gaplarning ishlatilishi

1.1. Ingliz tilida relativ gaplar

Ingliz tilida ot haqida ko'proq ma'lumot berishning juda ko'p yo'llari mavjud. Biz juda ko'p foydalanadiganimiz sifatlar (masalan.: a helpful teacher) va boshqa otlar orqali (masalan.: a university teacher). relativ gaplar esa biror shaxsga, narsaga yoki guruhga tegishli bo'lgan ot haqida yanada ko'proq va aniqroq ma'lumot berishning yana bir eng oson usullaridan biridir.

The butcher who was not sending meat to the vicarage constantly threatened not to come to church... (SMHB.p33)

The flowers that I bought yesterday have already died. (SMHB.p128)

Their hair, which was uniformly curly, came to a sharp end at the neck and cheek; (GHTM. p 37)

Misollarda relativ gaplar ajratib ko'rsatilgan. Misollar shuni ko'rsatadiki, relativ gaplar odatda ko'pincha o'zlari ifodalab kelayotgan otdan so'ng joylashadi va ko'pincha who, whom, whose, when, why, where, that yoki which kabi relativ olmoshlar bilan boshlanadi. Who kishilar uchun, which narsa-buyum uchun, that ham kishilar uchun, ham narsa buyum uchun ishlatiladi. Relativ olmoshlarning mujskoy va jenskiy rodi yoki ko'plik formasi mavjud emas. Shuning uchun who yoki that relativ olmoshi bir erkak kishi, bir ayol kishiga yoki bir guruh odamlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

I had two elder brothers; one who died in the English army. (SMHB.p4)

Do you know the young girl that offered you a seat?

My father explained that travel was only for the very poor, who had nothing to lose, or for the very rich, who could afford to risk their money on adventure. (SMHB.p6)

Relativ gaplar shuningdek bir qancha olmoshlardan keyin ham ishlatiladi. Ular asosan something, someone, anything, anyone, everything va everyone kabi gumon olmoshlaridan keyin keladi.

Anna is someone that I really admire.

Is there anyone who knows how this machine works?

Everyone who has worked with her will miss her very much.

Relativ gaplar shuningdek some, many, much, all, yoki those kabi olmoshlardan keyin ham ishlatiladi.

Like many who were taking the exam, I felt very nervous. (MVFC.p108)

A small bar of chocolate was all that we had to eat. (LEPW.p45)

Relativ gaplar relativ olmoshlar yordamida yasaladi. Relativ olmoshlar ergash gaplarni bosh gaplar bilan bog‘lash uchun xizmat qiladi. Ular bog‘lovchi so‘zlardir. Lekin ular bog‘lovchi so‘zlarga o‘xshab faqatgina ergash gaplarni bosh gaplar bilan bog‘lab qolmasdan, ergash gapda gap bo‘lagi ham bo‘lib keladi.

Ega, kesim va to‘ldiruvchi ergash gaplarni bosh gaplar bilan bog‘lash uchun who (whom), whose, what, which relativ olmoshlari ishlatiladi. Bu olmoshlar so‘roq olmoshlariga o‘xshaydi, lekin ular so‘roq gap yasamasdan, ergash gaplarni bosh gaplarga bog‘lash uchun xizmat qiladi:

Aniqlovchi ergash gaplarni bosh gaplar bilan bog‘lash uchun who, (whom), whose, which va that relativ olmoshlari ishlatiladi:

Who odamlarga nisbatan ishlatiladi va ergash gapda ega vazifasida keladi:

Which jonsiz buyumlar va hayvonlarga nisbatan ishlatilib, ergash gapda ega yoki vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib keladi:

Quyidagi misolga e’tibor qaratamiz:

The woman **who lives next door** is a doctor. (RMEG.p184)
└ *relativ gap* ─┘

Relativ gap gapning bir qismi bo‘lib, o‘zbek tiliga ko‘pincha jumla yoki birikma tarzida tarjima qilinadi. Relativ gap so‘zlovchi nazarda tutgan shaxs yoki narsani izohlash, ta’kidlash uchun ishlatiladi:

The woman who lives next door...

(“who lives next door” - qaysi ayol haqida gapirayotganligini izohlaydi)

People who live in the country ...

(“who live in the country” - qaysi odamlar ekanligini izohlaydi)

Who olmoshi relativ gaplarda shaxslarga nisbatan ishlatiladi (narsalarga emas)³¹:

The woman — she lives next door — is a doctor.

↓
→ The woman who lives next door is a doctor. (RMEG.p182)

We know a lot of people — they live in the country

↓
→ We know a lot of people who live in the country. (RMEG.p182)

The serious people — they took him seriously — never felt quite sure.

↓
→ The serious people who took him seriously never felt quite sure. (HGTM.p17)

Shaxslarga nisbatan (who o‘mida) that ishlatish mumkin, lekin which bog‘lovchisini ishlatish mumkin emas:

The woman that lives next door is a doctor.

Ba‘zan who bog‘lovchisini ishlatish shart bo‘ladi, that bog‘lovchisini esa ishlatib bo‘lmaydi.

Narsalar haqida gapirilganda that yoki which ishlatiladi, who ishlatish mumkin emas:

Where is the cheese? - it was in the fridge

↓
Where is the cheese (which/that) was in the fridge? (RMEG.p182)

Which o‘rnida ko‘pincha that ishlatiladi, lekin ba‘zan which ishlatish shart bo‘ladi.

What = “the thing(s) that” – relativ gaplarda izohlanadigan ot yoki olmosh ishlatilmaganda qo‘llaniladi. Buni quyidagi misollarda ko‘rib what va that ni qiyoslagan holda chiqamiz:

What happened was my fault. (= the thing that happened) (RMEG.p182)

Everything that happened was my fault. (not Everything what happened)

The machine that broke down is now working again.

(not The machine what broke down) (RMEG.p182)

³¹ R. Murphy “English grammar in Use” Cambridge University press 2003

Shuni yodda tutishimiz kerakki relativ gaplarda who/that/which ishlatiladi, he/she/they/it ishlatilmaydi:

I've never spoken to the woman who lives next door.

(*not* the woman she lives)

Quyidagi misollarga e'tibor qaratamiz:

The woman who that lives next door is a doctor. (RMEG.p184)

The woman lives next door. who (= the woman) – ega

The serious people who took him seriously never felt quite sure. (HGTM.p17)

The serious people took him seriously who (= the serious people) – ega

Where is the cheese that which was in the fridge? (RMEG.p184)

The cheese was in the fridge. that (= the cheese) – ega

Who/which/that olmoshlari relativ gaplarda ega vazifasida kelganda tushirib qoldirish mumkin emas. Demak quyidagicha gap tuzish xato hisoblanadi:

“The woman lives next door is a doctor”

“Where is the cheese was in the fridge?”

Ba'zan who/that/which to'ldiruvchi vazifasida kelishi mumkin. Masalan:

The woman who I wanted to see was away on holiday. (RMEG.p184)

I wanted to see the woman. who (= the woman) – to'ldiruvchi
I – ega

Have you found the keys that you lost? (RMEG.p184)

You lost the keys. that (= the keys)
You – ega

Who/that/which to'ldiruvchi bo'lib kelganda tushirib qoldirish mumkin.

Demak quyidagicha yozishimiz mumkin:

The woman I wanted to see was away. *yoki* The woman who I wanted to see...

Have you found the keys you lost? *yoki* the keys that you lost?

Relativ gaplarda predloqlarning ishlatilishiga e'tibor qaratamiz. Maxsus so'roq gaplarda to'ldiruvchi yoki o'rin holiga so'roq berilganda olmosh gap boshida ishlatiladi va predlog gapdagi o'z o'rniga keladi.

Tom is talking **to** a woman – do you know her?
→ Do you know the woman (who/that) Tom is talking **to**?

I slept **in** a bed last night – it wasn't very comfortable.
→ The bed (that/which) I slept **in** last night wasn't very comfortable.

(RMEG.p184)

Yuqoridagi kabi gaplarda what ishlatib bo'lmaydi.

Everything (that) they said was true.

(not Everything what they said)

I gave her all the money (that) I had.

(not all the money what I had)

What (= the thing(s) that) otsiz, balki ot o'rnida ishlatiladi:

Did you hear what they said? (=the things that they said)

Whose olmoshi relativ gaplarda his/her/their olmoshlari o'rnida, shu shaxsga aloqador biror shaxs yoki u egalik qiladigan biror narsani ta'kidlab izohlash uchun ishlatiladi. O'zbek tiliga egalik qo'shimchasi (-i/-lari) tarzida tarjima qilinadi:

We saw some people – their car had broken down

↕
We saw some people **whose** car had broken down.

Biz mashinasi buzilib qolgan uch-to'rt kishini ko'rdik.

Whose, asosan, odamlarga nisbatan ishlatiladi:

A widow is a woman whose husband is dead.

What's the name of the man whose car you borrowed?

I met someone whose brother I went to school with.

Endi who va whose olmoshlarini qiyoslaymiz:

I met a man who knows you. (he knows you)

I met a man whose sister knows you. (his sister knows you)

Relativ gaplarda who to'ldiruvchi bo'lib kelganda uning o'rnida whom ishlatilishi mumkin:

The woman who I wanted to see was away.

The woman whom I wanted to see was away.

Whom (to whom / from whom / with whom va hokazo tarzida) predloglar bilan ishlatilishi mumkin:

The people with whom I work are very nice.

Lekin whom ko'pincha og'zaki nutqda ishlatilmaydi. Odatda uning o'miga who yoki that ishlatish yoki hech narsa ishlatmaslik afzal hisoblanadi. Demak quyidagi tarzda yozsak ham xato hisoblanmaydi:

The woman I wanted to see ... *or* The woman who/that I wanted to see ...

The people I work with ... *or* The people who/that I work with ...

Biror o'rin-joyini izohlash uchun relativ gaplarda where ishlatilishi mumkin, o'zbek tiliga tarjima qilinganda tushib qoladi:

the restaurant — we had dinner there — it was near the airport
→ The restaurant where we had dinner was near the airport.

I recently went back to the town where I grew up.

(*yoki* ... the town I grew up in *yoki* ... the town that I grew up in)

I would like to live in a place where there is plenty of sunshine.

Vaqtini ifodalovchi so'zlar bilan that ishlatilishi yoki tushib qolishi mumkin:

the day / the year / the time etc. { something happens *yoki*
that something happens

Do you remember the day (that) we went to the zoo?

The last time (that) I saw her, she looked fine.

I haven't seen them since the year (that) they got married.

Relativ gaplar ikki turga bo‘linadi. Bular aniq va noaniq relativ gaplardir. Quyidagi misollarda aniq va noaniq relativ gaplarning tagiga chizib ko‘rsatamiz va ularni qiyoslaymiz.

Avvalo aniq relativ gaplarni ko‘rib chiqamiz.

By 4.30, there was only one painting which hadn't been sold.
(MVAP.p111)

The woman who lives next door is a doctor.

Sarvara works for a company that makes furniture

We stayed at the hotel (that) you recommended.

Ushbu misollarda so‘zlovchi qaysi shaxs yoki narsa haqida gapirayotganini relativ gapda ifodalamoqda.

painting which hadn't been sold – qaysiki sotilmagan rasm haqida

the woman who lives next door - qaysi ayol haqida,

A company that makes furniture - qaysi tashkilot haqida,

The hotel (that) you recommended - qaysi mehmonxona haqida
gapirayotganini ifodalayapti.

Ushbu gaplarda relativ gaplarni (,) vergul bilan ajratilmaydi.

We know a lot of people who live in London.

Endi ikkinchi bir turdagi relativ gaplarni ya'ni noaniq shakldagi relativ gaplarni ko‘rib chiqamiz:

By 4.30, which was almost closing time, nearly all the paintings had been sold.

My brother John, who lives in London, is a doctor.

Tom told me about his new job, which he's enjoying very much.

We stayed at the Park Hotel, which a friend of ours recommended.

Mr. Bell's article, which I read yesterday, is very interesting.

Ushbu misollarda relativ gaplar so‘zlovchi qaysi shaxs yoki narsani nazarda tutganligini ifodalamayapti, balki qaysi shaxs yoki narsa gapirilayotganligi bizga avvaldan ma'lum. Bu gaplarda relativ gap shu shaxs yoki narsa haqida qo‘shimcha ma'lumot (extra information) beradi.

Ushbu relativ gaplar (,) vergul bilan ishlatiladi:

My brother John, who lives in London, is a doctor.

Har ikki turdagi relativ gaplarda ham shaxs uchun “who” narsalar uchu “that” ishlatiladi. Lekin aniq turdag relativ gaplarda that ishlatilishi mumkin:

Do you know anyone who/that speaks French and Italian?

Who/which/that to‘ldiruvchi bo‘lib kelsa tushirib qoldirish mumkin.

We stayed at the hotel (that/which) you recommended.

This morning I met somebody (who/that) I hadn't seen for ages.

Ko‘pincha bu turdagi relativ gaplarda whom ishlatilmaydi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek har ikki turdagi relativ gaplarda ham shaxs uchun “who” narsalar uchu “that” ishlatiladi. Lekin noaniq turdag relativ gaplarda that ishlatilishi mumkin emas:

Jack, who (that *emas*) speaks French and Italian, works as a tourist guide.

John told me about his new job, which (that *emas*) he's enjoying very much.

Who yoki which tushirib qoldirilmaydi:

This morning I met Karim, who I hadn't seen for ages.

Shaxslarga nisbatan whom (to‘ldiruvchi bo‘lib kelganda) ishlatilishi mumkin:

This morning I met Tom, whom I hadn't seen for ages.

Har ikki turdagi relativ gaplarda ham whose va where ishlatilishi mumkin:

We met some people whose car had broken down.

There is a student whose father works for a foreign company.

What’s the name of the place where you went on holiday?

Ann, whose car had broken down, was in a very bad mood.

Jack has just been to Manchester, where her daughter lives.

2.2. Relativ olmoshlar ega va to'ldiruvchi sifatida

Ega, kesim va to'ldiruvchi ergash gaplarni bosh gaplar bilan bog'lash uchun *who, whom, whose, what, which* relativ olmoshlari ishlatiladi. Bu olmoshlar so'roq olmoshlariga o'xshaydi, lekin ular so'roq gap yasamasdan, ergash gaplarni bosh gaplarga bog'lash uchun xizmat qiladi:

Who has done it is unknown.

I do not know which of them speaks French.

That is not what I want.

Aniqlovchi ergash gaplarni bosh gaplar bilan bog'lash uchun *who, (whom), whose, which* va *that* relativ olmoshlari ishlatiladi:

The man who is sitting next to Mr. Brown is my English teacher.

The watch that I lost was a very good one.

Who odamlarga nisbatan ishlatiladi va ergash gapda ega vazifasida keladi:

The man who was here is a bookkeeper.

Relativ gaplardagi relativ olmoshlar gapda ega yoki to'ldiruvchi bo'lib kelishi mumkin³². Buni quyidagi misollar orqali taqqoslaymiz:

She's the only person who offered to help. (who bu ega)

She's the only person who Janice offered to help. (who bu to'ldiruvchi)

That's the woman who bought my car. (MVFC. p60)

This is the car that I used to own. (MVFC. p60)

The man who is sitting next to Mr. Brown is my English teacher.

Relativ gaplarda relativ olmosh egani ifodalaganda va bir shaxs yoki ko'pchilik odamlarni ifodalaganda, *who* yoki *that* relativ olmoshi ishlatiladi, masalan:

I paid the man that delivered the flowers.

I met a woman who knows your sister.

I didn't trust the builders who fitted our new kitchen.

³² Michael Vince "First certificate language practice" Macmillan

Relativ gaplarda relativ olmosh ega bo‘lib kelib shaxsni ifodalaganda *who* relativ olmoshi *that* relativ olmoshiga nisbatan ko‘proq ishlatiladi.

Relativ gaplarda relativ olmoshi egani ifodalaganda va bir narsa-buyum yoki ko‘p narsani ifodalaganga *which* yoki *that* relativ olmoshi ishlatiladi, m-n.:

I’ve bought a new oven that comes on automatically.

There are systems which are much more reliable.

Is this the house that you bought. (MVFC p61)

Relativ gaplarda relativ olmosh egani ifodalaganda va bir shaxs yoki ko‘pchilik odamlarni ifodalaganda, *who*, *that* yoki *whom* relativ olmoshi ishlatiladi yoki relativ olmoshi umuman tushirib qoldiriladi, m-n.:

They were a group of college friends who I hadn’t seen for several years.

I’m afraid Annabel is someone that I really dislike.

He was a distant cousin whom she had never met. (MVFC. p61)

Did you know the woman you were chatting to in the park?

Whom ham odamlarga nisbatan ishlatiladi va ergash gapda vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib keladi:

There is the man whom we saw in the park yesterday.

Which jonsiz buyumlar va hayvonlarga nisbatan ishlatilib, ergash gapda ega yoki vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib keladi:

The books which are on the table must be returned to the library today (ega).

He showed me the letter which he had received from his brother (to‘ldiruvchi).

He showed me the skin of the wolf which he had killed (to‘ldiruvchi).

Which ayrim so‘zlarga emas, o‘zidan oldin kelgan butun gapga ham taalluqli bo‘lishi mumkin va *bu* deb tarjima qilinadi:

He came to see me off, which was very kind of him.

I said nothing, which made him still more angry.

Whose jonlilarga nisbatan ishlatiladi va qaysi otga taalluqli bo‘lsa o‘sha

otning oldidan keladi:

That is the girl whose brother came to see us yesterday.

Do you know the man whose house we saw yesterday?

Whose ba'zan jonsiz buyumlarga nisbatan of which o'rnida ishlatilishi mumkin:

We saw a mountain whose top (=the top of which) was covered with snow.

That olmoshi jonli va jonsizlarga nisbatan ishlatiladi.

That ko'pincha ajratuvchi va tasniflovchi aniqlovchi ergash gaplardagi which va whom olmoshlarini almashtirib keladi:

The anicle that (which) I translated yesterday was very easy.

These are the words that (which) you mispronounce.

Vessels that (which) are built for the transportation of oil products are called tankers.

The doctor that (whom) I visited yesterday is a specialist in diseases of the heart.

Ega bo'lib keluvchi who olmoshi kamdan-kam hollarda that olmoshi bilan almashtiriladi:

The man who (that) has written this article is my friend.

Orttirma darajadagi sifatlar, tartib sonlar va all, any, only so'zlari bilan aniqlangan otlardan keyin faqat that olmoshi ishlatiladi (which ham emas, whom ham emas):

This is the best dictionary that I have ever seen.

This is the first composition that he has written in English.

I've read all the books that you gave me.

Tasvirlovchi aniqlovchi gaplar bilan that olmoshi ishlatilmaydi:

His article on this subject, which was published in 1998, was a great success.

My brother, whom I have not seen for a year, has just returned to London.

Relativ gaplarda yil, oy, kun yoki fasllarni ifodalavchi otlardan keyin kelgan when relativ olmoshi relativ ravish sifatida ishlatiladi.

I remember the day when I first met her.

Wasn't that the summer when we took the boys camping?

Relativ gaplarda uy, ko'cha, xona kabilarni ifadalovchi so'zlardan keyin kelgan *where* relativ olmoshi relativ ravish sifatida ishlatiladi.

This is the room where my grandfather was born.

Is that the place where you do all your homework?

Rasmiy ingliz tilida *when* va *where* relativ olmoshlari ba'zan *predlog* + *which* bilan almashtirilishi mumkin. Masalan:

I remember the day on which I first met her.

This is the room in which my grandfather was born.

Eventually I reached a stage at which I began to enjoy my work.

Ot so'z turkumidagi *reason* (sabab) so'zidan keyin kelgan *why* relativ olmoshi relativ ravish sifatida ishlatiladi. Masalan:

That's the reason why I left my job.

That is the reason why he did it.

Ot so'z turkumidagi *reason* so'zidan keyin kelgan *why* relativ olmoshi o'rnida *that* relativ olmoshini ham ishlatish mumkin, ba'zan relativ olmosh tushib qolishi ham mumkin, m-n:

That is the reason that I left my job.

That is the reason I left my job.

That is the reason that he did it.

That is the reason he did it.

Same shunday, shunga o'xshash, *such* shunday so'zlaridan keyin relativ olmosh o'rnida *as* ishlatiladi:

I had the same difficulty as you had.

It is not such an interesting book as I thought.

2.3. Relativ gaplarda relativ olmoshlarning predloglar bilan kelishi

Whom odatda rasmiy hollarda ishlatiladi va faqatgina yozma va rasmiy ogʻzaki nutqda ishlatiladi. Uning oʻrniga *who* relativ olmoshi ishlatiladi. Biroq, agar relativ olmoshi predlogdan keyin kelsa koʻproq *whom* ishlatiladi, masalan:

the man with who she lived

the man with whom she lived

Koʻpchilik relativ olmoshlar predlog bilan kelsa, predlogni gapning oxirida ishlatishadi, masalan:

the man who she lived with

Relativ gaplarda relativ olmosh egani ifodalaganda va bir narsa-buyum yoki koʻp narsani ifodalaganda *which* yoki *that* relativ olmoshi ishlatiladi yoki relativ olmoshi umuman tushirib qoldiriladi, masalan:

On the dining room wall was a photograph which my sister had taken.

Shu narsani taʼkidlash joizki, agar relativ olmoshlari *much*, *all*, *little* kabi soʻzlardan keyin kelsa, *which* emas, *that* relativ olmoshi ishlatiladi, masalan:

There wasn't much that they could do to help.

These ruins are all that remain.

Which va *whom* relativ olmoshlari predlogli toʻldiruvchi vazifasini bajaradi, buni quyidagi misollar orqali koʻrib chiqamiz, masalan:

the room in which we are standing

an achievement of which I am very proud

the man with whom she lives

the article to which he is referring

Biroq bu rasmiy hollarda ishlatiladi, predloglarning relativ olmoshlarning oldidan kelishidan koʻra koʻproq gapning oxirida keladigan hollarni uchratishimiz kumkin, masalan:

the room which we are standing in

an achievement which I am very proud of

the man who she lives with

the article which he is referring to

Xuddi shuningdek relativ olmoshlarni tushirib qoldirish mumkin, masalan:

the room we are standing in

an achievement I am very proud of

the man she lives with

the article he is referring to

Agar relativ gaplar tarkibidagi fe'l predlog bilan tugaydigan fe'lli birikma bo'lsa, predlog hech qachon *which* yoki *whom* relativ olmoshining oldidan ishlatilmaydi, masalan:

This is just something which I have to put up with.

The story, which she made up, was accepted as the truth. (MVEG.p158)

Agar relativ gaplardagi relativ olmoshi vositali to'ldiruvchi vazifasini bajarsa, *to* yoki *for* predlogi ishlatiladi, masalan:

the girl (who/that) I lent my jacket to

the person (who/that) I poured a drink for

Predlog + whom/which

Whom va which oldidan predlog ishiatish mumkin, (to whom / with whom/ about which / without which/ to which/ for which va hokazo kabi):

Mr Lee to whom I spoke at the meeting, is very interested in our proposal.

Fortunately we had a map, without which we would have got lost.

This is the book to which the professor referred in his lecture. (DDRC.p94)

The hotel room, for which we had already paid, turned out to be very noisy. (MVEG.p158)

Og'zaki nutqda ko'pincha relativ gaplarda predlog fe'ldan keyin qo'llaniladi. Bu holda shaxs uchun whom emas, balki who tshlatiladi:

Yesterday we visited the City Museum, which I'd never been to before.

This is my friend from Kosonsoy, who I was telling you about.

Whom va which predloglar bilan kelib predlogli to'ldiruvchi bo'ladi. Predlog whom va which fe'ldan oldin ham, fe'ldan keyin ham, agar to'ldiruvchi bo'lsa, to'ldiruvchidan keyin ham kelishi mumkin:

The man about whom we were talking yesterday (=whom we were talking about yesterday) will come at five o'clock.

That ishlatilganda predlog har doim fe'ldan keyin qo'yiladi:

The man that we were talking about yesterday will come at five o'clock.

This is not the letter that they refer to.

Ega bo'lib kclgan relativ olmoshdan keyin kclgan fe'l o'sha olmosh bosh gapdagi qaysi so'zga taalluqli bo'lsa o'sha so'z bilan shaxs va sonda moslashadi:

The student who is standing at the window is my brother.

The students who are standing at the window are my friends.

The book that (which) is lying on the table is mine.

The books that (which) are lying on the table are mine.

All of / most of etc. + whom/which

Quyidagi misollarga e'tibor qaratamiz:

Mohira has three brothers. All of them are married. (2 ta gap)

Mohira has three brothers, all of whom are married. (1 ta gap)

They asked me a lot of questions. I couldn't answer most of them. (2 ta gap)

They asked me a lot of questions, most of which I couldn't answer. (1 ta gap)

Quyidagi birikmalar ham xuddi shu yo'sinda ishlatilishi mumkin:

none of / neither of / any of / either of

some of / many of / much of / (a) few of

both of / half of / each of / one of / two of etc.

} + whom (odamlar)
} + which (narsalar)

Mahmud tried on three jackets, none of which fitted him.

Two men, neither of whom I had seen before, came into the office.

They've got three cars, two of which they rarely use.

"the cause of which / the name of which" va hokazo tarzida birikmalar yasalishi mumkin:

The building was destroyed in a fire, the cause of which was never established.

We stayed at a beautiful hotel, the name of which I can't remember now.

Which (what *emas*)

	Shaxs (Person)	Narsa(Thing)
All of	+ whom	+ which
Any of	+ whom	+ which
(a) Few of	+ whom	+ which
Both of	+ whom	+ which
Each of	+ whom	+ which
Either of	+ whom	+ which
Half of	+ whom	+ which
Many of	+ whom	+ which
Most of	+ whom	+ which
Much of	+ whom	+ which
None of	+ whom	+ which
One of	+ whom	+ which
Two of etc...	+ whom	+ which

There were a lot of people at the party, many of whom I had known for many years.

He was carrying his belongings, many of which were broken.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Relativ gaplarda relativ olmoshlar ergash gaplarni bosh gaplar bilan bog'lash uchun xizmat qiladi. Ular bog'lovchi so'zlardir. Lekin ular bog'lovchi so'zlarga o'xshab faqatgina ergash gaplarni bosh gaplar bilan bog'lab qolmasdan, ergash gapda gap bo'lagi ham bo'lib keladi.

Misollar shuni ko'rsatadiki, relativ gaplar odatda ko'pincha o'zlari ifodalab kelayotgan otdan so'ng joylashadi va ko'pincha who, that yoki which kabi relativ olmoshlar bilan boshlanadi. Who kishilar uchun, which narsa-buyum uchun, that ham kishilar uchun, ham narsa buyum uchun ishlatiladi. Relativ olmoshlarning mujskoy va jenskiy rodi yoki ko'plik formasi mavjud emas. Shuning uchun who yoki that relativ olmoshi bir erkak kishi, bir ayol kishiga yoki bir guruh odamlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Ega, kesim va to'ldiruvchi ergash gaplarni bosh gaplar bilan bog'lash uchun who, whom, whose, what, which relativ olmoshlari ishlatiladi. Bu olmoshlar so'roq olmoshlariga o'xshaydi, lekin ular so'roq gap yasamasdan, ergash gaplarni bosh gaplarga bog'lash uchun xizmat qiladi.

Aniqlovchi ergash gaplarni bosh gaplar bilan bog'lash uchun who, whom, whose, which va that relativ olmoshlari ishlatiladi.

Relativ gaplardagi relativ olmoshlar gapda ega yoki to'ldiruvchi bo'lib kelishi mumkin.

Relativ gaplarda relativ olmosh ega bo'lib kelib shaxsni ifodalaganda who relativ olmoshi that relativ olmoshiga nisbatan ko'proq ishlatiladi.

Relativ gaplarda relativ olmoshi egani ifodalaganda va bir narsa-buyum yoki ko'p narsani ifodalaganda which yoki that relativ olmoshi ishlatiladi.

Agar relativ gaplar tarkibidagi fe'l predlog bilan kelsa, predlog relativ olmoshlardan oldin ishlatish mumkin.

Agar relativ gaplar tarkibidagi fe'l predlog bilan tugaydigan fe'lli birikma bo'lsa, predlog hech qachon which yoki whom relativ olmoshining oldidan ishlatilmaydi.

III Bob. Relativ gaplarning sintaktik - semantik tahlili

3.1. Relativ obyekt sintaksema

Who, whom, which, that, whose relativ (relativ) olmoshlarining til strukturasi o'ziga xos xususiyati bor. Uni gapdagi vazifasi va gapdagi semantikasi bor. Relativ olmoshlar tobe komponent vazifasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda bosh gap bilan ergash gap o'rtasida bog'lovchi vazifasini o'taydi. Bog'lovchilar o'zlari alohida sintaktik-semantikaga ega emas, ammo relativ olmoshlar o'zining alohida sintaktik- semantikasiga ega. Har bir relativ olmosh har xil semantikaga ega. Masalan who bilan boshqacha semantika, which bilan boshqacha semantika. Shulardan relativ olmoshlar semantikasini ifoda etuvchi va gap tarkibidagi antisedanti bo'lgan gaplarni qarab chiqamiz.

It was Summerlee who was the first to speak. (CDLW.p155)

Bu gapda *who* ning antisedanti *Summerlee*. Bu gapda antisidant so'z o'zi ifodalab kelayotgan gap bilan yonma-yon turipti. Ba'zi holatlarda esa alohida joylashishi ham mumkin.

I had felt as a man might feel who had fallen into a pit. (HGWTM.p 92)

Barcha relativ sintaksemlar uning qo'shimcha sintaktik semantikasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar barchasi keng ma'nodagi substantsial sintaktik semantikasi ifoda etadi. Bular sof relativ olmoshlar bilan ifodalangan relativ sintaksemlar yoki predlogli birikmali relativ olmoshlar bilan ifodalangan relativ sintaksemlar bo'lishi mumkin.

Relativ agentiv sintaksema, relativ obyekt, relativ lokativ, relativ lokativ allativ, relativ instrumental. Bu ishda lingvistik eksperiment biz aytayotgan fikrni isbotlash quroli hisoblanadi.

Olmoshli leksemalarning o'ziga xos guruhini *who, which, that, whose* kabi relativ olmoshlar tashkil qiladi. Ular bog'lovchi funksiyasini bajarib, faqat ergashgan tobe gaplarda ishlatiladi. Boshqacha qilib aytganda, ergashgan va asosiy gaplar orasidagi sintaktik bog'liqlik aynan relativ olmoshlar yordamida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, relativ olmoshlar ergashtiruvchi bog'lovchilardan farqli ravishda ergash gap tarkibiga boshqa elementar birlik bilan

u yoki bu sintaktik aloqada bo'lgan elementlar sintaktik birlik sifatida nomoyon bo'ladi (aksariyat hollarda predloglar bilan birga). Bunday ergashgan gaplar orasidan biz birinchi navbatda ot yoki olmosh bilan ifodalanib, asosiy gapda antetsedentga ega bo'lgan relativ olmoshlar haqida gapiramiz;

Masalan:

The man who was here is an artist.

This is the man whom I was speaking about. (KJTM.p136)

Bunday turdagi ergash gaplarda tadqiq qilinayotgan olmoshlarning sintaktik semantikasi eng avvalo asosiy gapda relativ olmosh ko'rsatadigan subtansiyani bildiruvchi antetsedent borligi bilan aniqlanadi va belgilanadi. Bu bilan olmoshning o'zini ham, undan tashqari tarkibida relativ olmosh bo'lgan ergash gapning ham nomini izohlanadi. Internatsional terminologiyani qo'llagan holda shuni aytish mumkinki, bunday turdagi ergash gaplarda ko'rib chiqilayotgan olmoshlar relativlikning sintaktik-semantik belgisi olgan, ya'ni relativ sintaksemalarni ifoda qiladi. Undan tashqari, hozirgina aytib o'tilganidek, olmoshlar ergash gaplarda xuddi asosiy gapda uning antetsedenti kabi substansiyani bildirar ekan, relativ sintaksemalar substansiallikning ham kategorial sintaktik-semantik belgisiga ega. Relativ olmoshlar tomonidan predlog bilan yoki predlogsiz ifodalangan, substansiallar kategoriyasidan bo'lgan ushbu relativ sintaksemalar anchagina farqli bo'lishlari mumkin. Ayniqsa ular qatoriga quyidagilar kiradi:

— relativ agentiv (The letter that came yesterday.... This is he that brought the news);

— relativ obyektiv (This is the house that Jack built. During the years (that) he had spent abroad.... The man (that) you were looking for has come. The man (that) we are speaking about.... This is the man (whom) I was speaking about. This is the book (which) I chose. The country of which I was speaking....);

— relativ lokativ (The house in which he lives.... The hotels at which we stayed...);

—relativ lokativ allativ (The places to which we are going...), relativ instrumental (The pen (which) I was writing with...) va ko‘plab boshqalar.

Substansial relativ sintaksemalar whose relativ olmoshi yordamida ifodalanadigan pozessiv va ba’zi bir boshqa sintaksemalarni ham o‘z ichiga oladi: relativ pozessiv (The man to whose wife I gave the money...), yaxlit relativ pozessiv (The house whose windows are broken...) va boshqalar.

Keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa predlogsiz yoki *for, about, of* predlogli *that, whom, which* olmoshlari bilan ifodalangan relativ obyektiv sintaksemalar substansial relativ sintaksemalarning variantlar sistemasini o‘rganishda tadqiqotchi ularni ifodalashning katta xilma-xilligiga duch kelib, tanlashga turli faktorlar ta’sir qiladi. Bu ayniqsa *that, whom, which* relativ olmoshlarining o‘ziga tegishli bo‘lib, ularni tanlash jonli yoki jonsiz predmetni anglatish olish yoki olmasligidan kelib chiqadi. Masalan, *that* va *whom* olmoshlari ba’zida bir-birlarini erkin almashtirishlari mumkun, ya’ni o‘zlari yoki predlog bilan qo‘shilib relativ obyektli yoki boshqa relativ sintaksemaning (tobe gaplarda) fakultativ variantlarini nomoyon qiladi, ushbu olmoshlarining birinchisi nafaqat jonsiz, balki jonli predmetlarni anglatish uchun ham ishlatiladi; Buni quyidagi misollarimizda taqqoslaymiz:

The man that you are looking for has come → The man whom you were looking for has come.

Which va *whom* olmoshlari esa odatda bir-birlarini almashtira olmaydilar, sababi birinchisi faqatgina jonsiz, ikkinchisi – faqat jonli predmetlarni bildirishda ishlatiladi. Ular o‘rtasida ushbu ma’noviy farq mavjud ekan, ularni substansial relativ sintaksemalarning yana boshqa variantlari qatoriga kiritish mumkin. Substansial relativ sintaksemalarning konnotativ variantlari ifodalanish vositalarining turli – tumanligi olmoshlarining o‘zini (ular bor yo‘g‘i bir nechta) tanlovidan ko‘ra predlog tanlovi bilan bog‘liq bo‘lib, bir – biriga nisbatan ko‘p xolda distantno joylashgan bo‘lsalarda, relativ olmoshlar ular bilan birga ajralmas birlik hosil qilishadi. “Predlogli faktor” ayniqsa turli-tuman predlogli birikmalar bilan ifodalanishi mumkin bo‘lgan relativ obyektli sintaksemalarga

nisbatan nomoyon bo‘ladi. Predlog tanlovi ushbu sintaksema ishlatilgan o‘timli fe’lning qaysi leksik-semantik guruhga kirishiga bog‘liq. Masalan, look “qidirmoq” o‘timli fe’li relativ obyektli sintaksema bir predlog bilan olmosh birikmasi yordamida ifodalangan bo‘lsa, speak “gapirmoq” o‘timli fe’li bo‘lganda esa boshqa bir predlog yordami bilan yasaladi:

The man that you were looking for has come. (SMHB.p54)

This is the man whom I was speaking about. (KJTM.p136)

“Predlogli faktor” yana quyidagi joyda bilinadiki, ham relativ obyektli ham boshqa relativ sintaksemalarni ifodalashda tobe pozitsiyasida predlog turli holatlarni egallashi mumkin, shu bilan ushbu sintaksemalarning ehtimoliy variantlarining sonini oshiradi: u whom va which relativ olmoshlaridan (that olmoshi undan oldin predlog qo‘yilishiga yo‘l qo‘ymaydi) bevosita oldin kelib yoki ergash gapning boshida kelishi yoki mos relativ sintaksemaning kesuvchi variantini hosil qilib ergash gapning oxirida kelishi mumkin. Ko‘p xollarda about whom — whom... about, of which — which... of, with which — which... with va shu kabi birikmalar juftliklari relativ obyektli, relativ instrumental yoki boshqa relativ sintaksemalarning fakultativ (bir-birini almashtiruvchi) variantlari sifatida nomoyon bo‘lishi mumkin. Buni quyidagi misollarimizda taqqoslab olamiz:

This is the man about whom I was speaking → This is the man whom I was speaking about.

The pen with which I was writing... → The pen which I was writing with...

Ammo sintaktik yoki boshqa tartib faktorlari, masalan ergash gapning katta hajmi relativ sintaksemalarning yuqorida aytilgan variantlarining birini ishlatishga halaqit berishi mumkin. Substansial relativ sintaksemalar variantlarining turli-tumanligi yana shu bilan ham shartlanadiki, *that*, *which*, *whom* eksplitsit ifodalangan predlogsiz variantlari va predlogli kesuvchi variantlar bilan bir qatorda (yo‘qorida ko‘rsatilganlar singari) ifodalanmagan yoki relativ olmoshlarning tushib qolgan variantlari ham mavjud bo‘lib quyidagicha

belgilash mumkin: Ø, Ø... about, Ø... of, Ø... with va shu kabilar. Substansial relativ sintaksemlarning tushib qolgan variantlarining mavjudligi tajriba yordamida isbotlanadi. Ayni shu sintaksemaning tushib qolmagan variantini tushib qolgan variantiga almashtiriladi.

This is the book I chose → This is the book which I chose.

The man you were looking for has come → The man that you were looking for has come.

This is the man I was speaking about → This is the man whom I was speaking about.

The pen I was writing with... → The pen which I was writing with....

That is the man we met yesterday. → That is the man whom we met yesterday.

